



UDK:34.3.197(584.4)

Faxriya ABDURASULOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: faxriyabahtiyorovna@gmail.com

T.f.d., dots. A.Xolikulov taqrizi asosida

STUDY OF THE HISTORY OF BUKHARA EMIRATE BY RUSSIAN AND EUROPEAN AUTHORS

Annotation

Since the establishment of the Bukhara Emirate, that is, from the second half of the 18th century to the 20s of the 20th century, it is dedicated to the study of the history of revealing the role of religious scholars in the life of the ruling dynasties, society, economy, and culture in the state administration of the Bukhara Emirate. The historical analysis of all the scientific literature and articles created allows to analyze and describe it in three periods according to the time of its study, its content, region and the character of the method of approach.

Key words: historiography, administration, analysis, religious scholars, study, objectivity, historians, dynasties.

ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА РУССКИМИ И ЕВРОПЕЙСКИМИ АВТОРАМИ

Аннотация

С момента основания Бухарского эмирата, то есть со второй половины XVIII века по 20-е годы XX века, он посвящен изучению истории выявления роли богословов в жизни правящих династий, общество, экономика и культура в государственном управлении Бухарского эмирата. Исторический анализ всей созданной научной литературы и статей позволяет проанализировать и описать ее в трех периодах в зависимости от времени ее изучения, содержания, региона и характера метода подхода.

Ключевые слова: историография, управление, анализ, религиоведы, исследование, объективность, историки, династии.

BUXORO AMIRLIGI TARIXINING RUS VA YEVROPALIK MUALLIFLAR TOMONIDAN O‘RGANILISHI

Annotatsiya

Buxoro amirligi tashkil topgan davrdan boshlab, ya’ni, XVIII asr ikkinchi yarmi – XX asrning 20- yillarigacha Buxoro amirligining davlat boshqaruvida din ulamolarining hukmron sulolalar hayotida, jamiyat, iqtisodiyot, madaniy hayotda tutgan o‘rnini ochib berish tarixi mavzusining o‘rganilishiga bag‘ishlangan barcha ilmiy adabiyotlar va maqolalarning tarixiy tahlili, uning o‘rganilish vaqti, mazmuni, hududi hamda yondashuv uslubi xarakteri bo‘yicha uni uch davrga bo‘lib tahlil qilish va ta’riflashga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: tarixshunoslik, boshqaruv, tahlil, diniy ulamolar, o‘rganish, holislik, tarixchilar, sulolalar.

Kirish. Rossiya va Yevropa tarixshunosligida Buxoro amirligi tarixiga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mualliflar ko‘pincha o‘sha davr voqealarining guvohi sifatida voqea va hodisalarni mustaqil ravishda tadqiq va tahlil qilishga urinishgan. Bu borada rus tadqiqotchilarining asarlari Buxoro amirligining Mang‘itlar sulolasi davridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro amirligi tashkil topgan davrdan boshlab, ya’ni, XVIII asr ikkinchi yarmi – XX asrning 20- yillarigacha Buxoro amirligining davlat boshqaruvida din ulamolarining hukmron sulolalar hayotida, jamiyat, iqtisodiyot, madaniy hayotda tutgan o‘rnini ochib berish tarixchi olimlar, yosh izlanuvchilarning tarixshunoslik sohasida, ayniqsa, qo‘lyozma manbalarni o‘rganish borasida olimlarning qilgan xizmatlarini e’tirof etgan holda mamlakatimiz o‘rta asrlar davri tarixini, ijtimoiy-siyosiy hayotini, madaniyatini, yangicha nuqtai nazardan, haqqoniylik, tarixiylik, ilmiylik, obyektivlik tamoyilari asosida o‘rganish bugungi tarixshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Manbalar orasida Florio Benevenining «Реяции из Бухары» asari. Rossiyaning O‘rta Osiyoga qilgan diqqatga sazovor

sayohatlaridan biri 1774 yilda qozoqlar tomonidan asirga olingan Filipp Sergeevich Efremovning safari Uning sayohatlari haqidagi ma’lumot turli nomlar ostida uch marta (1786, 1794 va 1811) nashr etilgan. F.Efremov xabarlarini Buxoro tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Sharqiy Hindiston kompaniyasi ofitseri Aleksandr Bournesning Buxoroga sayohatini alohida ta’kidlash o‘rinlidir turk darveshi niqobi ostida 1863 yilda O‘rta Osiyoga tashrif buyurgan venger olimi Arminius Vamberining sayohati. 1826 yilda Parijda E. Meyendorf «Путешествие из Оренбурга в Бухару» kitobini fransuz tilida nashr ettirdi. U o‘z kitobida Buxoro xonligining iqtisodiy ahvolini tahlil qilishga alohida e’tibor beradi. E.Meyendorfning fikricha, Buxoro aholisining eng muhim daromad manbai qishloq xo‘jaligidir [1]. Tabiatshunos E.A.Eversman Buxoroning tabiiy boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosiga alohida e’tibor bergan. U shu hudud aholisining iqtisodiyoti, madaniyati va etnografiyasi masalalarini ham yoritgan. O‘rta Osiyo bozorlaridagi ingliz-kurashi tarixiga oid muhim manba 1830-yillar-1840-yillarning boshlarida bu hududda bo‘lgan ingliz va rus sayyohlarining asarlari, xususan, A.Byornesning «Путешествие в Бухару» (1805-1841) asaridir [2]. Kitobda Yevropa va Osiyo o‘rtasidagi tranzit savdosida Buxoro

amirligi muhim o'rin tutadi. O'rta Osiyodagi savdo yo'llari masalasi Borns Angliya-Rossiya raqobatining asosiy sababi deb hisoblagan. Sharqshunos N.V. Xonikov «Описание Бухарского ханства» asarida Buxoro aholisining etnik tarkibi masalalarini atroflicha tahlil qiladi[3]. XIX asrning 50-yillarida rus olimlari Rossiya va Buxoro o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarning holati va rivojlanish yo'llariga ko'proq e'tibor qaratdilar. Rus olimlari A. Semenov[5], V. Dolinskiy[6], V. Bartold, Xanikov Buxoro amirligi tarixini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Rus olimi sharqshunos professor V.V. Grigoryev, 1861 yilda «Mirzo Shams Buxoriy eslatmalari»ni nashr etgan[7]. 1863 yilda mashhur venger sharqshunosi A. Vamberi musulmon hoji niqobi ostida Buxoroga sayohat uyushtiradi va o'z kitoblarida Buxoro va butun O'rta Osiyoning tabiati, tarixi, geografiyasi va aholisining etnografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiylik, tizimlashtirish, qiyosiy, statistik, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullari hamda xolislik tamoyillaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. XVIII asrda xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlarning kengayishiga Florio Benevenining qimmatli ma'lumotlari katta hissa qo'shadi. Rossiyaning O'rta Osiyoga qilgan diqqatga sazovor sayohatlaridan biri 1774 yilda Filipp Sergeevich Efremov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotdir. Uning sayohatlari haqidagi ma'lumot turli nomlar ostida uch marta (1786, 1794 va 1811) nashr etilgan. Efremov o'z asarida Buxoroni, qishloq xo'jaligini, hunarmandlar hayotini, qo'shinni tashkil qilishni tasvirlaydi. Efremov o'z asarida 625 ta "Buxoro so'zlari" ro'yxatini ham yozib qoldirgan [9]. XVIII asrning 70-yillari ikkinchi yarmida Buxoroga mahbus sifatida tashrif buyurib, bir muddat Buxoro qo'shinida xizmat qilib, birinchi mang'itlar hukmronligini batafsil tasvirlab bergan. U paxta, ipak kabi ekinlar yetishtirishga e'tibor berib, xo'jalik holatini atroflicha tahlil qiladi. Efremov buxoroliklar hayotining o'ziga xosligi haqida batafsil to'xtalib o'tadi. U rus mualliflari orasida birinchi bo'lib madrasalarning amirlik hayotidagi o'rnini qayd etadi. F.Efremov xabarlari Buxoro tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. XIX asrning birinchi yarmidagi sayohatlardan. Londonda, keyin esa Rossiyada rus tiliga tarjima qilingan uch jildda chop etilgan sayohatning batafsil tavsifini tuzgan Sharqiy Hindiston kompaniyasi ofitseri Aleksandr Byorensning Buxoroga sayohatini alohida ta'kidlash o'rinlidir sharqshunos N. Xanikov va tabiatshunos Leman hamrohligida, Ignatievning Buxoro va Xivaga elchixonaga boshlig'i, jumladan sharqshunos Lerx va nihoyat, turk darveshi niqobi ostida 1863 yilda O'rta Osiyoga tashrif buyurgan venger olimi Arminius Vamberining sayohati. Meyendorfnung "Путешествие из Оренбурга в Бухару" kitobini fransuz tilida nashr ettirilishi. U o'z kitobida Buxoro xonligining iqtisodiy ahvolini tahlil qilishga alohida e'tibor beradi. E.Meyendorfnung fikricha, Buxoro aholisining eng muhim daromad manbai qishloq xo'jaligidir. Meyendorfnung ichki savdo holati, hunarmandchilikning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlari va xulosalari juda qimmatlidir. E. Meyendorf Buxoroning boshqa davlatlar bilan tashqi savdosi masalasi ham ko'rib chiqadi. U, ayniqsa, O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi savdo-sotiqni rivojlantirish muammosi va istiqbollarga to'xtalib o'tadi. Uning fikricha: "Buxoriya uchun eng muhim savdo Rossiya bilan olib brogan savdosidir..."[10] E.Meyendorf Buxoro amirligining siyosiy rejimini chuqur tahlil qiladi. E.Meyendorf kitobi O'rta Osiyo,

jumladan, Buxoro amirligini o'rganish tarixida yangi bosqichni ochadi. Bu asar rus sharqshunosligida Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoliga oid birinchi yirik tadqiqot hisoblanadi A. Byorns 30-yillarning boshlarida razvedka missiyasi bilan O'rta Osiyoda bo'lgan. XIX asr leytenant unvoni bilan Sharqiy Hindiston kompaniyasida xizmat qilgan va Hindiston bo'ylab sayohat qilgandan so'ng, 30-yillarning boshida Buxoroga boradi. A.Byorns o'zini "shaxsiy sayohatchi" sifatida ko'rsatdi: A.Byorns kitobning IX-XI boblarida uning Buxoroga kelishi batafsil bayon etilgan. kitobda Buxoro amirligining davlat tuzilmasi, ma'muriy-boshqaruv ishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Davlat apparati, mahalliy hokimliklar tizimi, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish, qurolli kuchlarning xususiyatlari va mudofaa qobiliyati, safarbarlik qobiliyati, davlat-harbiy xizmat va uning moddiy-texnik ta'minoti, aholi soni, haqida qimmatli ma'lumotlar berdi. Buxoro shahri, aholisining kiyim-kechaklari, odob axloqi va urf-odatlarini, shaharda yashovchi yahudiy, hindu hamda iqtisodiy - ijtimoiy holati (qul savdosi har tomonlama tavsiflangan), bosh vazir – qushbegi bilan bir necha uchrashuvlar haqida, Bahouddin Naqshband mozorini ziyorat qilish haqida va hokazo. XIX asrning 30-yillarida. Rossiyaning Buxorodagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalarini soni sezilarli darajada oshdi Demizon va I.V. Vitkevich o'z eslatmalarida P.I. Demizon Buxoro xonligining armiya va savdo holati haqida gapiradi. Demizon Buxoroning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida nafaqat batafsil ma'lumot berishga, balki Buxoro amirligi haqida batafsilroq tasvirlab berishga harakat qiladi. Uning sayohat davri 1833-1837 yillarni qamrab oladi. U birinchi marta rus tilida Buxoro amirligi haqida umumlashtiruvchi asar yaratdi, unda tabiiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol, maorif va madaniyat rivoji to'g'risida ma'lumotlar bor. Unda Xanikov oldingi tadqiqotlar natijalari, o'z kuzatishlari materiallari va yozma manbalar ma'lumotlaridan tahliliy ravishda foydalangan" [11]. Asarning birinchi qismida Buxoro amirligi hududi, relyefi va iqlim sharoiti tavsifi berilgan. Xonikov o'z asarida Buxoro aholisining etnik tarkibi masalalarini atroflicha tahlil qiladi. N.Xanikov Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvolini, jumladan, yerga egalik va yerga egalik holati, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo masalalarini chuqur o'rganadi. Uning Buxoroning ma'muriy-davlat tuzilishi haqidagi tahlili katta qiziqish uyg'otadi. Asarda yuksak unvonlar olish yo'llari, maktab va madrasalardagi ta'lim usullari haqida ma'lumot beriladi. Chor Rossiyasi davrida nashr etilgan adabiyotlarga asoslangan holda yaratilgan tarixiy asrlar hamda ilmiy-tadqiqotlarning aksariyat turkumi tadqiqot jarayonida alohida yondoshuvni taqozo etadi. V.V.Bartold, A.A.Semyonov tomonidan yozilgan asarlar, aynan yuqorida qayd etilgan tarixiylik, xolisona baholash, haqqoniylik mezonlari asosida tarixiy voqealarga yondoshganligi va ilmiy tahlil etilganligi bilan bugungi kunda ham o'z qiymatini yo'qotmagan asarlar majmuasini tashkil etadi. O'z asarlarida tarixchi olim I.A. Remez birinchi jahon urushiga qadar bo'lgan davrdagi Buxoro amirligining iqtisodiy jihatdan tashqi savdo aloqalarini ilmiy tahlil qilish bilan bir qatorda, uning ijtimoiy-siyosiy vaziyati to'g'risida ham yetrlicha ma'lumotlarni o'z asarlarida keltirib o'tgan. V.V.Bartold kitoblarida esa Buxoro amirligining Turkiston madaniy – ijtimoiy hayotidagi o'rni aniq ravshan yozilib o'tilgan. XX asr boshlarida akademik A.N.Samoylovich Buxoroda oz vaqt yashab o'z faoliyatini olib boradi. U yozgan Buxoroga oid asarlari orasida yosh buxoroliklarning birinchi harakati haqidagi maqola ayniqsa qimmatli. XIX asrning 60-

80 yillarida yaratilgan tarixiy asarlarga N. Kislyakov, G. To'xtametov, G.I Iskandarov, O.A. Suxareva, ijodini kirgizishimiz mumkin. Aynan A. Majlisov va B.I. Iskandarov asarlarida Sharqiy Buxoro va Pomir etaklari, ularning iqtisodiy, agrar holati va siyosiy hodisalar bilan bir qatorda, mahalliy hokimiyat tizmi to'g'risida ham kerakli ma'lumotlar o'z ifodasini topgan. Xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarga ajratilib o'rganildi. Bu olib borilgan tadqiqotlar ichida Eduard Eversmannning "Reise von Orenbourg nach Bushara", nomli asari prof. X. Lixtenshteyn muqaddimasi bilan 1823-yilda Berlinda nemis tiliga tarjima qilingan nusxasi bosib chiqiladi. Adabiyotlarda ko'rsatilishicha, bu asarning ingliz tiliga tarjimasi 1823-yilda Londonda "Russian mission into the interior of Asia" nashr etiladi. Bu asar qimmatligi shundaki Buxoro shaharining tasviri berilgan: uning kattakichligi, devorlari, ko'chalari, uylari, amir turadigan ark, saroylari, registon, madrasalari, karvon saroylari, bozorlari: qullar bozori va qimmatbaho buyumlar bozori; ingliz, rus, eron, xitoy mollari nomma-nom sanab chiqilgan. Shu bilan birga, Buxoroning Shaybonixonidan (1488-1510) to amir Haydargacha (1800-1826) bo'lgan davrining qisqacha siyosiy tarixiga ocherk berilgan. «Исторический обзор путешествий в Бухару» nomli asarining avtori V.V. Zavyalov Eversmanning kitobiga: «Bu asar hozirgacha noma'lum bo'lgan mamlakatni ilmiy ravishda tasvir etishda birinchi ajoyib ish», deb baho beradi. G. Meyendorf, Budrin, E. Eversman va G. Spasskiylarning asarlarida Buxoro va Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar to'g'risida juda ajoyib va boy faktik ma'lumotlar berilib, ular XIX asrning oxirlaridan boshlab, bu ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarining juda katta ahamiyatga ega bo'la boshlaganini va uning tez sur'at bilan rivojlanayotganini aniqlab bera oladi. Anke fon Kyugelgenning Легитимация среднеазиатский династии мангитов произведениях их историков (XVII-

XIX vv.) nomli kitob jahon sharqshunoslari tomonidan iliq kutib olindi va tarixchi olimlar tomonidan ko'plab taqrizlar yozildi. Muallifning yozishicha bu asar ilk bor Berlin ilmiytadqiqot kollejida ish faoliyatining oxirgi yillarida (1998-1999) «Инсценировка одной Династии: историография при первых мангитских правителях Бухары (1747- 1826)» nomi ostida taxrirlangan[12]. Anke fon Kyugelgenning aytishicha bu kitobni yozishda uzoq, mashshaqatli mehnat qolaversa Qozon, Sankt-Peterburg va Toshkentdagi kutubxonalardagi ma'lumotlar yordam bergan. 1995 yildan boshlab yig'ilgan ma'lumotlar xalqaro-ilmiy tadqiqot proyeksi «Мусульманская культура в России и Центральной Азии (XVIII -XX vv.)» bilan aloqalar o'rnatilishi o'rganilayotgan mavzuni yanada boyitdi deydi. Kitobda mang'itlar sulolasining hukmdolari Muhammad Rahimxon, Amir Shohmurod va Amir Haydar ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ularning toj-taxtga nisbatan qonuniylik va vorisiylik huquqi o'rganilib ochib berilgan.

Xulosa va takliflar. Ushbu maqolada Buxoro amirligi tarixiga oid ilmiy asarlar tadqiqotiga to'xtalib o'tilgan. Buxoro amirligi tarixshunosligini o'rganishda biz bevosita Yevropalik va Rossiyalik sharqshunoslar, sayohatchilar, missionerlar, tarixshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar qimmatli ma'lumotlar hisoblanadi. Rossiyalik tadqiqotchilarning asarlari, asosan, chor Rossiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosati sharoitida yozilgan, va bu yaqqol ko'rinib turibdiki chor Rossiyasi manfaatlariga xizmat qilgan. Biroq, tadqiqotchilar aksariyat hollarda sodir bo'lgan voqealarning guvohi sifatida voqea va faktlarni mustaqil ravishda tadqiq qilishga va tahlil qilishga harakat qilganlar. Shuning uchun ular tomonidan yozib qoldirilgan ma'lumotlar Buxoro amirligining tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.- М., 1975. – 181с
2. Борнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагора с подарками великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию высшего правительства Индии в 1831, 1832 и 1833 годах лейтенантом Ост-Индской компанейской службы, Александром Борнсом, членом Королевского общества/ Пер. П.В. Голубкова. Ч. II. - М., 1848. -502 с.
3. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства.- СПб, 1843. – 279 с
4. Небольсин П.И. Очерки торговли России со странами Средней Азии – Хивой, Бухарой и Коканом (со стороны Оренбургской линии). – Записки Русского географического общества. Т. X. -Спб ,1856
5. Семенов А. Изучение исторических сведений о российской внешней торговле и промышленности с половины XVII столетия по 1858 г. -Спб.. 1859.
6. Долинский В. Об отношениях России к среднеазиатским владениям и об устройстве среднеазиатской степи.-Спб., 1865
7. Григорьев В. В. О некоторых событиях в Бухаре, Коканде и Кашгаре. Записки Мирзы-Шемса_ Бухари. - Казань, 1861
8. Вамбери Г. История Бохары и Трансоксании с древнейших времен до настоящего. Том 1-2. –Спб., 1873.
9. Ефремов Ф. Десятилетнее странствование унтер-офицера Ф. Ефремова по Средней Азии, под. ред. Э. Мурзаева. - М., Географгиз, 1952.
10. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару.- М., 1975. – 181с
11. Ханьков Н. Описание Бухарского ханства.- СПб, 1843. – 279 с



UDK: 94(5, 420)

Sanjar AXMEDOV,
Perfect University kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD)
E-mail: Sanjaraxmedov@bk.ru

AnDU professori, t.f.d. O.Komilov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SOURCES IMPORTANT IN THE ANALYSIS OF THE CULTURAL AND EDUCATIONAL LIFE OF AMIR TEMUR AND THE TIMURID PERIOD

Annotation

During the Timurid era, thanks to the support of the rulers, economic and social opportunities, and the work done in the field of education, hundreds of historical works were created. These works can provide detailed information about the past, the events that happened in the time of the authors. Political processes, changes of thrones, and the course of battles are widely covered from the sources, and cultural and educational processes are not excluded. This article analyzes the sources that were created during the study period and can provide information about cultural and educational processes.

Key words: Timurids, culture, enlightenment, art, sources, manuscripts, historical documents, "Zafarnama", "Matlai sa'dayn va majmai Bahrain", "Majolis un Nafois".

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ, ВАЖНЫХ ДЛЯ АНАЛИЗА КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ЖИЗНИ АМИРА ТЕМУРА И ПЕРИОДА ТИМУРИДОВ

Аннотация

В эпоху Тимуридов благодаря поддержке правителей, экономическим и социальным возможностям, проделанной работе в области образования были созданы сотни исторических произведений. Эти произведения могут дать подробную информацию о прошлом, событиях, произошедших во времена авторов. Политические процессы, смена престолов, ход сражений широко освещаются в источниках, не исключаются культурно-просветительские процессы. В данной статье анализируются источники, которые были созданы за период исследования и могут дать информацию о культурно-просветительских процессах.

Ключевые слова: Тимуриды, культура, просвещение, искусство, источники, рукописи, исторические документы, «Зафарнама», «Матлай садайн ва маймай Бахрейн», «Маджолис ун Нафоис». Amir Temur va temuriylar davri madaniy-ma'rifiy hayotini tahlil etishda muhim bo'lgan manbalar tahlili.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIY-MA'RIFIY HAYOTINI TAHLIL ETISHDA MUHIM BO'LGAN MANBALAR TAHLILI

Annotatsiya

Temuriylar davrida hukmdorlarning qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlar, ta'lim sohasida amalga oshirilgan ishlar tufayli yuzlab tarixiy asarlar vujudga keldi. Mazkur asarlar o'tmish, mualliflar zamonida sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqida atroflicha ma'lumot bera oladi. Manbalardan siyosiy jarayonlar, taxt almashinuylari, jangu-jadallarning borishi keng yoritilgan bo'lib, madaniy-ma'rifiy jarayonlar ham bundan mustasno emas. Mazkur maqolada o'rganilayotgan davrda yaratilgan va madaniy-ma'rifiy jarayonlar hususida ma'lumot bera oladigan manbalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, madaniyat, ma'rifat, san'at, manbalar, qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, "Zafarnoma", "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn", "Majolis un Nafois".

Kirish. Amir Temur va temuriylar davri madaniy-ma'rifiy hayotini yoritib beruvchi ko'plab manbalar mavjud. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan va o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Shunday manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asaridir [1]. Shaxsan Amir Temur buyrug'i bilan yozilgan mazkur asar 1404 yilning bahorigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan. Undan keyingi voqealarni Hofizi Abru ilova tarzida yozgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham temuriylar davri tarixini o'rganish bo'yicha bosh manbalardan biri hisoblanadi. Temuriy mirzolarining e'tiborini o'z bilim va zukkoligi bilan tortgan Ali Yazdiy bir necha yil Shohruh va uning o'g'li, Fors viloyati hukmdori Ibrohim Mirzo saroyida xizmat qilgan. Ma'lumki, Sharafuddin falsafa va diniy bilimlarga ega donishmand inson edi. Uning "Sharaf" taxallusi bilan she'rlar yozgani ham ma'lum. Yozuvchi o'zining "Zafarnoma" tarixiy asarini o'z she'rlari bilan boyitgan.

"Zafarnoma" asari muallif rejasiga ko'ra, uchta bobdan iborat bo'lishi kerak bo'lgan. Birinchi bobi Temur, ikkinchi bobi Shohruh Mirzo va uchinchi bobi Shohruh Mirzoning o'g'li, Sharafuddin Ali Yazdiyning homiysi Ibrohim Sulton Mirzoga bag'ishlangan bo'lishi e'tiborga olingan. Zero, mazkur asar temuriy shahozadalar Shohruh va Ibrohim Sulton Mirzolar faoliyati tarixini ham yoritishi kerak bo'lgan. Ammo asarning hozirda fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki bob mavjud emas, taxminlarga ko'ra ular yozilmagan, bizgacha yetib kelmagan yoki hali aniqlanmagan. Asarning bir qancha tarjimalari mavjud bo'lib[2], temuriylar tarixini o'rganishda birlamchi manbalardan biri hisoblanadi.

Garchi, o'rganilayotgan davr va yo'nalish uchun ushbu manbalardan ma'lumotlar olish imkoni bo'lmasada, voqealar izchilligini yoritish uchun qimmatli hisoblanadi.

Alisher Navoiyning temuriylar madaniyati tarixiga oid nodir asari "Majolis un Nafois" hisoblanadi[3]. Asar Sulton Husayn Boyqaro davrida turkiy tilda yozilgan. Unda 461 nafar

ijodkor insonlar haqida qisqa va ixcham ma'lumot keltirilgan. Ma'lumki, bunday keng qamrovli asar turkiy tilda ilk bor yozilgan. Asarning yettinchi bobida temuriylarning diniy-madaniy qarashlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ushbu asarning sakkizinchi bobi temuriylar madaniyati tarixining cho'qqisiga chiqishi uchun homiy bo'lgan Sulton Husayn Boyqaroga atalgan.

Temuriy Mirzo Zahridin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli asari[4] avvalo avtobiografiya bo'lib, memuarda uning hayotida kechgan voqealar haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga, unda boshqa temuriy mirzolar, ularning oilalari va atrofidagi muhim davlat arboblari tilga olingani uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi. Bobur Sulton Husayn Boyqaro davrida yetishib chiqqan shoirlar, olim va san'at arboblarning shaxsiyati va ijodini o'z ichiga olgan tazkira xususiyatiga ega muhim ma'lumotlar to'plami sifatida temuriylar madaniyati tarixining asosiy manbalari qatoriga kiradi.

Temuriylar saltanatida muhim vazifalarga ko'tarilgan shaxslarning tarjimai holi, faoliyati va madaniy hayot haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridir[5]. Davlatshoh Xuroson yurtlarida yashovchi zodagonlar oilasida tug'ilgan va uning oilasidan ko'plab odamlar temuriylar saltanatida muhim lavozimlarda ishlagan. O'z davrida muhim davlat vazifalarini bajargan deb hisoblangan Davlatshoh Sulton Husayn Boyqaro davrida siyosiy vazifalaridan voz kechib, keng qamrovli asarlar yozish bilan band bo'lgan. Ushbu asarda Temuriylar saltanati madaniyati tarixida faol ishtirok etgan davlat arboblari, olim va ulamolalar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asar muqaddima, xotima va yetti qismdan iborat bo'lib, so'nggi ikki qismi Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyo, Eron va Iroqda yashagan 41 nafar shoir ijodiga bag'ishlangan. Xotima qismida muallif bilan zamondosh mashhur allomalar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suxayliy, Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe"[6.] nomli xotirasi Husayn Boyqaro davrida mavjud bo'lgan XV asrga oid "She'r majlislari" haqida noyob ma'lumotlar beruvchi va XV-XVI asrda hukmronlik qilgan temuriylar va shayboniylar saltanatining madaniy tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim asardir. Vosifiy taxminan 1485 yilda Hirotda tug'ilib o'sgan deb hisoblansa-da, u bu muhim xotira asarini 1532 yilda Toshkentda tugatgan.

Temuriylar tarixnavisligining bosh manbalarining asosiy qismi ushbu saltanatda hurmatga sazovor bo'lgan mualliflar tomonidan yozilgan bo'lsa-da, Ibn Arabshohning "Ajoyib ul Maqdur" asari[7] Amir Temur davri guvohi bo'lgan va arab tilida yozilgan yagona asardir. Amir Temurning Suriyani egallab olishi natijasida oilasi bilan Samarqandga olib ketilgan Arabshohning o'sha paytda 11 yoshda bo'lganligi ma'lum. Bu holatning salbiy ta'siri bilan u o'z ijodida Amir Temurni zolim, borgan har joyini kuydiruvchi shafqatsiz shaxs sifatida ko'rsatdi. Ammo Temur davridagi allomalar, ulamolalar, san'at mutaxassislari e'zozlanganini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Asar xolis bo'lmasada, Temurning o'zi homiylikida faoliyat yuritgan ilm-fan mutaxassislari haqida ham muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Temuriylar tarixiga oid asosiy manbalardan yana biri bu "Samarqandga sayohat"[8] asari bo'lib, u Kastiliya qiroli Genrix 3 tomonidan Temurga yuborilgan elchilik delegatsiyasi orasida bo'lgan Kastiliya saroy palatasi a'zosi Ruy Gonsales de Klavixo tomonidan yozilgan. Bu asarda 1403-1406 yillarda Temur va u bosib olgan mamlakatlarda sodir bo'lgan voqealar tilga olinib, Temur va sulola a'zolari bilan bo'lgan suhbatlar,

bu yerda o'tkazilgan bazmlar haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Ispan tilida yozilgan bu asar turli tillarga tarjima qilingan.

Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiy (1375-1442) "Mujmal Fasihiy" (Fasihiyning qisqa tarixi) asari 1441 yilda forsiy tilda yozilgan qimmatli manba hisoblanadi. Asar muallifi o'z davrining taniqli tarixchilaridan biri bo'lgan va Shohruh Mirzo saltanatida Hirotda tarixnavislik bilan mashg'ul bo'lgan. Asarda dastlab umumiy tarix, so'ngra temuriylar davriga oid muhim voqealar yillar kesimida lo'nda bayon qilingan[9].

Tver shahridan bo'lgan rus savdogari va sayyohi Afanasiy Nikitinning "Xojenie za tri morya"[10] (Uch dengiz ortiga sayohat) asari ham mazkur davrda yozilgan va o'rganilayotgan davr uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Muallifning Hindistonga bo'lgan safari tafsilotlari bayonidan iborat bo'lgan bu asardan o'sha davr madaniy-ma'rifiy jarayonlari to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Yevropa tillarida yozilgan yana bir manba I.Shiltbergning. "Puteshestvie po Yevrope, Azii i Afrike s 1394 goda po 1427 god" asari hisoblanadi. Mazkur manbadan ham mavzuga doir ko'plab ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi manbalarning barchasi tadqiqot uchun ma'lum ma'noda foydalanildi va o'rganildi. Ushbu asarlardagi ma'lumotlar bosh manbadagi ma'lumotlarni tasdiqlash, qiyoslash va tahlil qilish asos qilib olindi.

Tadqiqot uchun asosiy bosh manba qilib, XV asr temuriylar davlati davlat arbobi, diniy olim va tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asari[11. B. 832] olindi. Mazkur asar tadqiqot uchun bosh manba qilib olinganligi sababli, uning muallifi va asari to'g'risida quyida batafsilroq ma'lumot beriladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" yoki arabchada atalishicha "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") asari Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining XV asrdagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixini yoritishda O'zbekiston tarixi fani uchun ma'lumotlarga boy qimmatli bosh manba sifatida xizmat qiladi.

Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn"ning ushbu ikkinchi jildiga yozgan muqaddimasida "dostonu hikoyatlar asosini ziyrak kishilar nazarida soddarok bir libosda jilvalantirishga, . . . asl jumalalar sofligi va yetuk fikrlar hayolini yot istioralar vositasi ham tushunarsiz maqtov-o'xshatmalar sababi bilan qorong'u va tuturuqsiz qilib qo'ymaslikka" ahd qilgan.

Fors tilining tarixiy taraqqiyoti, uslubi haqida yirik tadqiqot ishlari olib borgan Eron olimi Muhammad Taqiy Bahor ("Malik ush-shuaro") "Matlai sa'dayn"ga baho berib, uning "sodda, ravon va purmag'iz bir tarixiy asar" ekanligini uqtiradi.

Asar muallifi temuriy shahzodalar Shohruh Mirzo, Mirzo Abul Qosim Bobur, Mirzo Sulton Abu Sa'id va Sulton Husayn davrida yashab ijod etgan, dunyoga mashhur Abdurazzoq Samarqandiy bo'lib, hijriy yil hisobi bilan 12 sha'bon 816 yil (1413 yil 7 noyabr) Hirotda tug'ilgan. Uning to'liq ismi Kamoluddin Abdurazzoq, otasining ismi Jaloliddin Ishoq Samarqandiydir. U Hirotda tug'ilgan bo'lsada, "Samarqandiy" degan nisba bilan mashhur bo'lganligiga sabab, otasi Jaloluddin Ishoqning Samarqand shahrida yashab turganligidir. Abdurazzoq Samarqandiy o'zi va shu davr tarixnavisi Mirxondning ta'kidlashicha, otasi Jaloliddin Ishoq Shohruh saroyida mulozimlikda bo'lib, ko'p yillar davomida uning o'rdusida imomlik va qozilik mansabini o'tagan. Uning Hirotda kelib qolishi sababi Amir Temur bilan

bog'liq bo'lib, temuriylarning ishonchli kishilari sifatida olib kelingan.

Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux hukmronligi davrida va undan keyin ham ko'proq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ichki va tashqi aloqalar bilan shug'ullangan. Jarayonlar tafsilotlarini yozib borgan, o'zi ham jarayonlarda faol ishtirok etgan.

Abdurazzoq Samarqandiy ellik yoshga chiqqunicha avval Shohrux, so'ng uning o'rniga taxtga o'tirgan boshqa temuriylar saroyida davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohruxning vafotidan keyin birin-ketin taxt almashgan temuriylar: Mirzo Abdulatif, Mirzo Abdullo, Mirzo Abulqosim Bobur, Mirzo Abu Sa'id va boshqalar huzurida saroy hizmatida bo'lgan.

Bu xizmati davomida to'plagan ma'lumotlari va tajribasi orqali o'zi xizmat qilgan temuriylar hukmronligi davri tarixini yozishiga asos tayyorlagan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux saroyida "mulozimlik qilgan davridagi asosiy mashg'uloti diplomatik yozishmalarni olib borishda qatnashish va shaxsan elchi sifatida xizmat qilish bo'lgan desak, uning faoliyatiga to'laroq baho bergan bo'lamiz.

Uning elchilik sohasida ham ishtirok etganligi bizga ma'lum. Elchilik aloqalarini amalga oshirishda uning ishtirok etganligiga uning o'z elchilik safarlari haqida keltirgan axborotlari yaqqol dalil bo'la oladi. U yuqorida aytib o'tilgan imtihondan ishonch bo'lib, o'zining yaxshi sifatleri orqali ko'rsatib nufuzga erishib oladi. Ushbu imtihondan ikki yil o'tgach, Shohrux uni Janubiy Hindistondagi port shahar Kolikutga va Vijayanagar davlatiga elchi qilib yuboradi. 1442 yilning 13 yanvarida Hirotdan yo'lga chiqqan Abdurazzoq Sharqi Janubiy Eron yerlari, Arabiston yarim oroli orqali quruqlik va dengiz yo'li orqali yurib, 1442 yil 17 oktabrda Kolikutga yetib boradi. Elchilar bu shaharda besh oy turib so'ng Vijayanagara o'tishgan. U yerdan esa 1443 yilning oxirigacha bo'lib, shu yili 5 dekabrda qaytishga o'tlanishgan va 1444 yilning dekabr oyida Hirotda qaytib kelishgan. o'tadi. Abdurazzoq Samarqandiy Hindistondan qaytgandan keyin, temuriylar saroyida yana oldingi ishlarini qilishda davom etgan va ayrim hollarda Shohruxning elchisi sifatida Hirotdan boshqa yerlarga ham yuborilgan. Masalan, Shohrux Shimoliy - g'arbiy Eronga yurish qilganda Abdurazzoq ham u bilan birga boradi va u yerdan uni Gilon viloyatiga elchi qilib yuboradi. Abdurazzoq Gilon hokimi amir Muhammad bilan muzokaralarni tamomlab Ray shahriga qaytib keladi va bu yerda Shohrux bilan uchrashadi. Shohrux endi uni Misr sultoni qoshiga elchilikka tayinlaydi. Ammo, Shohrux Ray shahridaligida (1447 yil fevral-mart) vafot etadi. Uning vafotidan keyin ham shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketadi. Natijada Misrga yuboriladigan elchilik ham amalga oshmay qoladi. Shohruxning vafotidan keyin ham Abdurazzoq Samarqandiy temuriylarning Hirotdagi saroyida davlat ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Ulug'bek va Abdulatiflar bilan ancha yaqin bo'ladi va Abulqosim Bobur Xuroson taxtini egallagach, uning xizmatida bo'ladi.

1458-1459 yillar voqealari bayoniga ko'ra, u bu yili Hirotni egallagan Abu Sa'idning elchisi sifatida Astrobodga safar qiladi. Chunki, shu yili Astrobodni Sulton Husayn Boyqaro egallagan u bilan muzokaralar olib borish vazifasini Abu Sa'id Abdurazzoqqa topshirgan edi. Uning davlat ishlaridagi faoliyatiga oid o'z ma'lumotlari ana shu Astrobod elchiligi bilan tugaydi. Shundan keyin u Hirotdagi Shohruxiya xonaqosiga shayxlik lavozimida ishlay boshlaydi. 26 yil davomida hukumat ishlarida qatnashib, elchilik vazifalarini

o'tab kelgan Abdurazzoq shayhlik mansabiga o'tirib dunyo ishlaridan chekindi deb o'ylash mumkin. Lekin, "Matlai sa'dayn"da keltirilgan muhim tarixiy ma'lumotlarning jonli, hayotiy tarzda aks ettirilishi ularni o'z davrining siyosiy va madaniy hayotidan to'la xabardor bo'lib turgan kishi yozganligidan darak beradi.

Uning zamondoshi bo'lgan Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida Abdurazzoq haqida shunday yozgan:

"Mavloni Abdurazzoq Mavloni Abdulqaxorning inisidir. Xushmuxovara kishi erdi, zohir ilmi tahlil qilib erdi. Xususan, tarix ilmikim, onda musannafoti bor mashhurdir va har kishi bu fanda aning mahoratini bilay desa, o'z tarixidan bila olur. Bu matla' aningdurkim:

Boz abru kard bolo turki tiyrandozi man,

Olamaro kushtu dorad in zamon andozi man".

Navoiyning bu ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, ular bir-birlari bilan tanish bo'lishgan va hamsuhbat bo'lishgan.

Alisher Navoiy haqida Abdurazzoq Samarqandiy ham o'z asarida qisqa ma'lumot berib o'tgan. "Shu asnoda kamoli ixlos va ixtisosga egaligi hamda ixtiyor va e'tiborining balandligi bilan "biron kishi ham Bu Turobning shuhratu maqomiga ega emas", (degan) misraning tug'riligi xuddi unga bag'ishlangandek bo'lmish amir Nizomuddin Alisher Hirotni raiyyatlarining ahvolini o'rganish uchun keldi. U raiyyatni tinchlantirish uchun keltirgan nishonni juma kuni minbar tepasida o'qidilar. Amir Alisher qaytib ketgandan keyin mirzo Sulton Husayn Xoja Nizomuddin ham bandga oldirdi...". "Matlai sa'dayn" yozilish vaqtiga ko'ra Alisher Navoiy nomi zikr qilingan ilk tarixiy manba hisoblanadi.

Hozirda ma'lum bo'lishicha, dunyodagi Sharq qo'lyozmalari saqlanadigan yirik kutubxonalarning deyarli barchasida "Matlai sa'dayn"ning bir yoki bir necha nusxasi uchraydi[12.286-288 p.]. (Qarang: Samarqandiy Abdurazzoq. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. II Jild. 1 qism. 1405-1429 yil voqealari // Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohli lug'atlar muallifi A. O'rinboev. - Toshkent: O'zbekiston, 2008. - 632 b.; Izohlar bo'limi)

Sharq qo'lyozmalari kataloglaridan ma'lum bo'lishicha, asarning ikkinchi jildi qo'lyozmalaridan 20 dan ortig'i dunyo kutubxonalari mavjuddir. Bu qo'lyozma nusxalarning barchasini jamlab tuzilgan forscha tanqidiy matn hozirda mavjud bo'lmasada, pokistonlik olim, professor Muhammad Shafening dunyodagi barcha nusxalarni to'plab nashr qilgan kitobi, uning ilmiy ishlar uchun ishonchli matn bo'lishiga yordam beradi va biz manbahunoslar uchun tanqidiy tomondan foydalanishga imkon beradi. Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarini asosan 1467-1470 yillar orasida yozib tamomlagan va 1470 yili uni yana davom ettirib, shu yilning avgust voqealari kechmishlarini qo'shib, tugallagan.

Xulosa. Davr ilm-ma'rifati, olib borilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini bayon etuvchi yetarli darajada manbalar mavjud. Bunday manbalar sirasiga, temuriylar bevosita homiylik qilib yozdirganlari, mustaqil ravishda yozilganlari, mahalliy va xorijiy, ijobiy va salbiy ma'lumotlar beruvchi manbalar kiradi. Ushbu manbalarning aksar qismi tanqidiy matnlari tayyorlangan, ko'plari o'zbek, rus va dunyoning boshqa tillariga tarjima qilingan. Ulardagi ma'lumotlardan foydalanish ilmiy izlanuvchilarga bir qator yengilliklar beradi. Tanqidiy matn va tarjimaga ketadigan vaqtni tejash imkoniyatini beradigan tarjima ishlarining ahamiyati juda beqiyosdir.

ADABIYOTLAR

1. Крымский А. «История Персии, литературы и дервишеской теософии», т. III. М. 1914 - 1917, стр. 64

2. Тагирджанов А.Т. Описание таджикских и персидских рукописей восточного отдела библиотеки ЛГУ, Изд-во Ленинградского Университета, 1962, стр. 128-129
3. Ўринбоев А. «Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси», масъул муҳаррир С.Азимжонова, Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, Тошкент, 1960.
4. Ўринбоев А., Бўриев О. Ғиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси. Тошкент, «Фан» 1991.
5. Абдураззоқ Самарқандий. “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн”. Форс- тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳли лугатлар А.Ўринбоевники. Кўрсаткичларни Д.Юсупова тузган. Масъул муҳаррирлар: С.А.Азимжонова, У.И.Каримов. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1969.; Самарқандий Абдураззоқ. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II Жилд. 1 қисм. 1405-1429 йил воқеалари // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли лугатлар муаллифи А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 632 б.; Самарқандий Абдураззоқ. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II Жилд. 2-3 қисмлар. 1429-1470 йил воқеалари // Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳли лугатлар муаллифи А.Ўринбоев. Географик номлар изоҳли кўрсаткичи О.Бўриев. Тарихий шахс, воқеа ва атамаларга изоҳ беришда Ғ.Каримов ва Э.Миркомилловлар иштирок этишган. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 832 б.
6. Аҳмедов А. О комментариях Абд ал-Али Хусайна Бирджанди к “Зиджу” Улугбека // Из истории науки эпохи Улугбека. – Ташкент, 1979
7. Аҳмедов Б. А. Государство кочевых узбеков. – М.: Наука, 1965. ; Аҳмедов Б. А. Улугбек. – Тошкент: Фан, 1965. ; Б. Аҳмедов. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994.
8. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2002.;
9. Крачковский И. Ю. Избранные сочинения, т. IV, М. —Л., 1957, стр. 522
10. Бурiev О. О границах семи климатах. Зиджи Гурагани “Улугбек и на карте мира Хафизу Абру” // Из истории наук эпохи Улугбека. – Ташкент, 1979.;
11. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 59-63.
12. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 352 б.



UDK: 95(575.1)

Ro'zibek BABAEV,
IIV Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi
E-mail: rbabayev1985@gmail.com

QarDU professori, t.f.d B.Eshov taqrizi asosida

INFORMATION ABOUT THE ADDRESSES OF LARGE POPULATION OF USTRUSHONA IN THE WRITTEN SOURCES OF THE MIDDLE AGES

Annotation

In this article, the author analyzes the information about the ancient settlements of the Ustrushona region in the medieval written sources, as well as the typological forms of place names related to the history of the oasis from a comparative point of view.

Key words: Written sources, classical middle ages, Pashagar village, foundation documents, caravan routes, Sangzor river.

СВЕДЕНИЯ ОБ АДРЕСАХ МНОГОЧИСЛЕННОГО НАСЕЛЕНИЯ УСТРУШОНЫ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ СРЕДНЕВЕКОВЬЯ

Аннотация

В данной статье автор со сравнительной точки зрения анализирует сведения о древних поселениях Уструшонского региона в средневековых письменных источниках, а также типологические формы топонимов, связанных с историей оазиса.

Ключевые слова: Письменные источники, классическое средневековье, село Пашагар, учредительные документы, караванные пути, река Сангзор.

O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA USTRUSHONA YIRIK AHOLI MANZILLARIGA DOIR MA'LUMOTLAR

Аннотация

Ushbu maqolada o'rta asr yozma manbalarida Ustrushona o'lkasining qadimgi manzilgozlariga oid ma'lumotlar, shuningdek, voha tarixiga doir joy nomlarining tipologik ko'rinishlari qiyosiy jixatdan muallif tomonidan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yozma manbalar, klassik o'rta asrlar, Pashog'ar qishlog'i, vaqf hujjatlari, karvon yo'llari, Sangzor daryosi.

Kirish. O'rta Osiyoning qadimgi davr va o'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy va migratsiya jarayonlarida Ustrushona o'lkasi o'ziga xos o'rin tutgan bo'lib, o'rta asrlarga tegishli turli tillardagi yozma manbalar, xususan, arab, forsiy va turkiy tillarda yozilgan tarixiy va tarixiy-geografik asarlarda bu haqda muhim ma'lumotlar saqlanib qolganiga guvoh bo'lish mumkin. Qadimgi davr va ilk o'rta asrlarda Ustrushona vohasida kechgan tarixiy voqe'liklar asosan xitoy va sug'diy tillardagi manbalarda o'z aksini topgan bo'lsa, rivojlangan o'rta asrlarda ko'proq arab va forsiy tillardagi yozma manbalar, ayniqsa, Istaxriy, Ibn Havqal, Tabariy, Muqaddasiy, Ya'qubiy va yana bir qator arab va fors tarixchi hamda geograflarning asarlarida Ustrushonaning geografik joylashuvi, yirik aholi maskanlari – qishloq va shaharlar, rabotlar, karvon yo'llari va hokazolarga doir ma'lumotlar o'rin olgan[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Klassik o'rta asrlar deb ataladigan davr, ya'ni rivojlangan o'rta asrlardan keyingi XIV – XVII asrlardagi Ustrushona tarixi esa forsiy va turkiy tillarda yozilgan asarlar bo'lib, ular orasida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"[2], Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"[3], Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" (XVI asr)[4] va yana o'nlab tarixiy asarlarni o'rnak sifatida keltirish mumkin. Ushbu asarlarda asosiy diqqat-e'tibor Ustrushonada kechgan siyosiy jarayonlarga qaratilgan bo'lmasa-da, ayrim o'rinlarda ushbu vohaning yirik shaharlari va aholi maskanlari yuz bergan siyosiy voqe'liklar haqida birlamchi ma'lumotlar berishi bilan muhim ahamiyatga ega. Bular qatoriga Mahmud ibn Valining "Bahrul asror" (Sirlar dengizi) (XVII asr) geografik asarida keltirilgan Zomin va atroflariga tegishli qisqacha ma'lumotlarni ham qo'shish

mumkin. asarda keltirilishicha, O'ratepa, Dizzak (Jizzax), Zaamin (Zomin) Movarounnahrda joylashib, bir vaqtlar Samarqandga qarashli bo'lgan[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Ustrushonaning muhim vohalaridan biri bo'lgan Jizzax vohasiga, ayniqsa, Zomin, Dizak (Jizzax) va Baxmal mikrovoahalarida o'rta asrlarda bo'lib o'tgan siyosiy voqe'liklar va migratsiya jarayonlarini o'z davri tarixiy manbalari – "Boburnoma", "Tarixi Rashidiy", "Shayboniyoma" va boshqa asarlar orqali o'rganish mumkin. Ayniqsa, Jizzax vohasi va unga qo'shni hududlarda bo'lib, bu yerning geografik joylashuvi, aholisi, yirik shahar va qishloqlarini bevosita o'z ko'zi bilan ko'rgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Bobur o'z qo'shini bilan Farg'ona vodiysidan Samarqandga, Samarqanddan esa Toshkent vohasiga yo'l olganda bir necha bor tarixiy Ustrushona hududidan o'tgan bo'lib, "Boburnoma"da Mascho, O'ratepa, Zomin, Dizak (Jizzax), Ilon-o'ti (Morgo'zar), Xaliliya kenti (Qaliya), Pashog'ar (Pishog'ar), Vasmad (Usmat), Sangzor va hokazo kabi aholi maskanlari bo'yicha ma'lumotlar o'rin olgan. Ushbu aholi maskanlari bilan bog'liq "Boburnoma"da tilga olingan voqe'liklardan ayrimlarini quyidagicha keltirib o'tamiz:

Zomin – Pashog'ar (Pishog'ar).

“Xo'jandtin o'tlanib Pashog'arg'a mutavajjih bo'ldum. Zominga yetgan fursatta isittim. Bovujudi isitma Zomindin o'tlanib ilg'or qilib, tog' yo'li bila o'tub, Raboti Xojaning ustiga keldimkim, g'ofillikta shotu qo'yub chiqib, Raboti Xoja qo'rg'oninikim, Shovdor tumanining dorug'anishini uldur, olilg'ay. Subh vaqti yetildi. Eli xabardor bo'ldilar. Yana yonib, hech yerda tavaqquf qilmay, Pashog'arg'a kelildi”[6].

Ushbu ma'lumotda Pashog'ar ko'rinishida o'rin olgan aholi maskani o'rta asrlarda, xususan, Temuriylar davrida Jizzax vohasining eng muhim strategik hududlaridan biri

bo'lgan. Hozirgi kunda Jizzax viloyatining Zomin tumaniga qarashli Ravot qishlog'i yonida Pishag'ar nomli yirik aholi maskani bor. Ilk bor Ibn Havqal va Muqaddasiy asarlarida Bishog'ar nomi ostida Ustrushonaga qarashli rustoqlardan biri sifatida tilga olinib, tadqiqotchilar bu toponimni sug'diy til negizida Pishag'ar “tog' oldi”, “tog' etagi” degan so'z bilan bog'laydilar[7]. Sug'diy tilda “pesh”, “pish” so'zi “old”, “g'ar” esa “tog'” degan ma'noni bildirishi, qadimgi ustrushonalik aholining ko'pchiligi tili sug'diy tilda so'zlashganidan kelib chiqilsa, bu izoh o'z tasdig'ini topadi.



Ustrushona – Sug'd orasidagi tog' yo'llaridan biri – Pishog'ar qishlog'idan o'tgan

O'rta asrlarga tegishli vaqf hujjatlarida Samarqand shahri yaqinida ham shunday nomdagi aholi maskani bo'lgani qayd etiladi[8]. Ayrim tadqiqotchilar bu kabi ma'lumotlarga tayanib o'rta asrlarda mintaqada ikkita shu nomdagi qishloq bo'lgan deb qarab, biri Samarqand shahri yaqinida, ikkinchisi Jizzax va Zomin shaharlari orasida bo'lgan deb urg'u berishadi[9]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, o'rta va so'nggi o'rta asrlarga tegishli toponimlarning sezilarli bir qismi “pish”


yoki “pesh” topoformanti bilan yasilib, “old”, “oldingi tomon” ma'nosidagi eroniy tillarga xos bu so'z bilan bog'liq ko'plab toponimlar tarixiy yozma manbalarda ko'plab uchraganidek, bugungi kun O'rta Osiyo toponimiyasida ham yaxshi saqlanib qolgan. Ayniqsa, tarixiy Sug'd va Ustrushona vohalarida bir xil toponimlarning uchrashi o'z tarixiy asoslariga ega.



Tarixiy Ustrushonaning yirik shaharlari – Jizzax, Zomin, O'rtepa

Ustrushona va Sug'd orasidagi eng yaqin hududlarda joylashgan Pashog'ar orqali Samarqandga yetib borish ancha qulay bo'lgan. Ya'ni Ustrushonaning boshqaruv markazi bo'lmish Bunjikat (O'rtepa)dan Sug'dning markazi Samarqand shahriga yetib borish uchun ko'pincha savdo karvonlari, hatto qo'shinlar ham tog' yo'lida joylashgan Pashog'ar (Pishog'ar) orqali borishga harakat qilishgan. O'rta asrlarda Sug'dning muhim rustoqlaridan biri bo'lmish Shovdor tumani (bugungi Urgut) Ustrushonaning janubida joylashgan strategik hududlardan biri bo'lib, Samarqand shahriga boruvchi ustrushonaliklar asosan Sug'dning Shovdor yoki Kabudon (Bulung'ur – G'ubdintog') yo'nalishlaridan foydalanaganlar. Misol keltiradigan bo'lsak, “Boburnoma”dan anglashilicha, Dizak (Jizzax) shahri va Yoryayloq oraliq'ida joylashgan edi. Bobur bu yerni “Yoryayloq kentlari”dan, ya'ni yirik aholi maskanlaridan biri sifatida tilga olib, Pashog'ardan turib, Samarqand shahrini Shayboniylardan qaytarib olish uchun bir bir necha bor urinib ko'rganiga urg'u beradi.

Yuqorida keltirib o'tilganidek, Toshkent vohasidan Xo'jandga kelib, u yerdan Pashog'arga yo'l olgan Bobur Zominga yetib kelganda qattiq kasal bo'lib qoladi. Shunga qaramay Zomindan tog' yo'li (ya'ni Turkiston tizmalari) orqali Samarqand shahri yaqinidagi Shovdor tumanining dorug'asi (noibi) o'tiradigan Raboti Xoja qo'rg'oni devorlarini narvonlar orqali oshib o'tib, qal'ani egallashga urinadilar. Biroq o'sha kezlarda Shayboniylarga qarashli bo'lib turgan ushbu qo'rg'ondagilar buni payqab qolishgach, Bobur Pashog'arga qaytib kelishga majbur bo'ladi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, Shovdor tumani bugungi Urgut va Tayloq tumanlarini o'z ichiga olib, o'rta asrlardan so'nggi o'rta asrlargacha “Shovdor tumani” deb atalgan. Ushbu tumanning boshqaruv markazi yoki bosh qo'rg'oni sifatida “Boburnoma”da eslatilgan Rabot Xoja esa bugungi Urgut tumaniga qarashli, mahalliy aholi tomonidan Ravotxo'ja deb ataladigan va Zarafshon daryosining bosh suv to'g'onlaridan biri bo'lgan joy atrofiga to'g'ri keladi.



“Boburnoma”da tilga olingan Pashog’ar – Raboti Xo’ja aholi maskanlari

Bobur Raboti Xo’ja ko’rinishida keltirib o’tgan aholi maskani Zarafshon daryosi qirg’og’ida joylashgan bo’lib, bugungi kunda bu yer mahalliy aholi tilida Ravotxo’ja deb ataladi. Ustrushona o’lkasining muhim hududlaridan biri bo’lmish Dizak (Jizzax) shahri qadimgi davrlarda bo’lganidek o’rta asrlarda ham o’z mavqeini saqlab qoladi. Ilk o’rta asrlarda nisbatan kichikroq bo’lgan bu shahar asrlar o’tgan sari yiriklashib, Ustrushona va Sug’d orasidagi muhim iqtisodiy markazlardan biriga aylanadi. Quyida “Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar asosida bu shaharning ijtimoiy-siyosiy mavqeiga to’xtalib o’tsak.

Dizak – Ilon-o’ti (Morgo’zar)

Bobur o’z asarida Samarqandni Shayboniyxonga tashlab chiqib, Toshkentga yo’l olar ekan Jizzax va uning atroflari to’g’risida quyidagicha ma’lumotlarni keltirib o’tadi: “Kech namozi digar Ilon o’tida tushub, ot o’lturub etini shishlab, kabob kilib, otni laxza tindurub otlanduk. Tongdin burunroq Xaliliya kentiga kelib tushtuk. Xaliliyadan Dizak kelildi, ul fursatta Dizakta Xofiz Muhammadbek duldoyning o’g’li Toxir duldoy edi. Semiz etlar va mayda etmaklar, arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq amonlikka kelduk”[10].

Bobur “Ilon o’ti”, “Xaliliya kenti” deb tilga olgan toponimlar ham Ustrushona o’lkasining Jizzax vohasiga tegishli bo’lib, ulardan birinchisi bugungi Morgo’zar mavzesiga, ikkinchisi esa Jizzax shahri yaqinidagi Qaliya yoki Qaliya-tepa yodgorligiga to’g’ri keladi[11]. Arxologik qazuv

natijalariga ko’ra, Qaliyatepaning shimoliy, shimoliy-g’arbiy va g’arbiy qismida joylashgan, mudofaa devorlari bilan o’rab olingan 3ta qal’a-qo’rg’on bunyod etilgan.

2-3-qal’aqo’rg’onda o’tkazilgan stratigrafik shurf materiallari tahliliga ko’ra, ushbu qal’a-qo’rg’onlar mil. avv. III-II asrlarda barpo qilingan va undagi hayot milodiy VIII asrning oxirlarida arab bosqini natijasida to’xtagan.

Sangzor.

Ustrushona va Sug’d o’lkalarining oralig’idagi muhim karvon yo’llari o’tgan hududlardan biri Ustrushonaning qadimiy mikrovoahalaridan biri bo’lgan Sangzor bilan bog’liq bir qator yozma manbalar saqlanib qolgan. Jumladan, Bobur bu yerlarga yetib kelishdan oldin bugungi G’allaorol va Baxmal oralig’idan o’tgan bo’lib, bu yerlar o’sha kezlarda Sanzor yoki Sanzor deb yuritilganini “Boburnoma”da tilga olingan quyidagi ma’lumotlar tasdiqlaydi: “Sulton Maxmudxonga kishi yiborib, ko’mak tilab, Samarqand ustiga otlanildi. O’g’li Sulton Muhammad Xonikani va Ahmadbekni to’rt-besh ming cherik bila Samarqand ustiga ta’yin qilib, xon xam otlanib O’ratepagacha kelidilar. Anda xonni ko’rub, Samarqand ustiga Yoryayloq kelibtur. Men Burka yaylog’i (O’ratepa) bila Sanzorg’akim, Yoryayloqning dorug’anishini ul qo’rg’ondur, keldim. Sulton Muhammad Sulton va Ahmadbek Shayboniyxonning kelib, Sheroz va ul navohiyini chopqan xabarini topib, yonibturlar. Zarur bo’ldi, men xam yonib Xo’jandqa keldim”[12].

Xulosa va takliflar. Qisqasi, o’rta asrlarda Ustrushona o’lkasining markaziy, janubiy va janubi-g’arbiy hududlarida, xususan, Sug’d o’lkasiga tutash hududlarida joylashgan aholi maskanlariga doir o’rta asr yozma manbalarida, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida tilga olingan ma’lumotlar asosida ko’rib chiqish shundan darak beradiki, ushbu tarixiy o’lkalarga tegishli yirik aholi maskanlari – qishloq va shaharlar, tog’ va suv yo’llari qadimgi davr va ilk o’rta asrlarda bo’lganidek o’rta asrlarda ham o’zining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy ahamiyatini yo’qotmagan.

ADABIYOTLAR

1. История ат-Табари. Избранные отрывки (Перевод с арабского В. И. Беляева. Дополнения к переводу О. Г. Болшакова и А. Б. Халидова). – Ташкент, 1987; Нудуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи). Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О. Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 2008; Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. //Соч. Т.1. – М.: Наука, 1963.
2. Шараф ад-дин Али Йезди. Зафар-наме / пер. с перс. Е.А. Поляковой // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2008
4. Мирзо Муҳаммад Хайдар. Таърихи Рашиди / пер. с перс. Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой / Материалы по истории Средней и Центральной Азии X – XIX вв. – Ташкент: Фан, 1988. – С. 185-214.
5. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). Введение, перевод, примечания, указатели Б. А. Ахмедова. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 48, 55.
6. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Б. 67.
7. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б. 100.
8. Мукминова Р.Г. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI в. По материалам “Вақфнаме”. – Ташкент, 1996. – С. 323.
9. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Б. 100.
10. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. / Таҳрир хайъати: Абдуғафур Абдурашидов, Бобур Алимов ва бошқ. / Порсо Шамсиев, Содик, Мирзаев ва Эйжи Мано (Япония) нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи: Саидбек Ҳасанов / / Масъул муҳаррир: Ваҳоб Раҳмонов. «Шарк» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. – Тошкент, 2002. – Б. 86.
11. Пардаев М.Н., Пардаев Ш.М., Раҳмонов Н. Ў., Ҳасанбоев Т.Ф. Қалиятепа шахристонида 2021 йилда ўтказилган қазув тадқиқотлари // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, 2021 йил, 14-сон. – Б. 105-109.
12. Бобур, Захириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Б. 65.
13. <https://www.xabar.uz/madaniyat/geograf-bobur-va-uning-ilmi>



УДК: 541.183:536.658

Sherzod BAXRANOV,
O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti PhD, dotsent v.b.
E-mail: Sherofkun82@mail.ru

O‘zMU PhD I. Shakirov taqrizi asosida

СРЕДНЯЯ АЗИЯ – КАК СЫРЬЕВАЯ ХЛОПКОВАЯ БАЗА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ

Аннотация

Данная статья посвящена торговой политике и завоеванию Россией территории Средней Азии и образованию Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX – начале XX вв.

Ключевые слова: Туркестанский край, торговля, хлопок, текстильные, торговые отношения, предприятия, промышленность, сырьё.

O‘RTA OSIYO - ROSSIYA IMPERIYASINING PAXTA XOMASHYO BAZASI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola XIX-asrning ikkinchi yarmi – XX-asr boshlarida savdo siyosati va Rossiyaning O‘rta Osiyo hududini bosib olishi hamda Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishiga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: Turkiston o‘lkasi, savdo, paxta, to‘qimachilik, savdo aloqalari, korxonalar, sanoat, xomashyo.

CENTRAL ASIA – AS A COTTON RAW MATERIAL BASE OF THE RUSSIAN EMPIRE

Annotation

This article is devoted to trade policy and Russia’s conquest of the territory of Central Asia and the formation of the Turkestan General Governorship in the second half of the 19th – early 20th centuries.

Key words: Turkestan region, trade, cotton, textile, trade relations, enterprises, industry, raw materials.

Введение. Развитие торгово – экономических отношений в Средней Азии имеет давнюю историю. Вторая половина XIX и начало XX в.в. для Средней Азии характеризуется новым этапом в развитии торгово-экономических отношений. С развитием капитализма проблема расширения рынков сбыта приобретала для России особенно острый характер. Овладевая рынками среднеазиатских ханств, Россия стремилась захватить и рынки Восточного Туркестана, богатые сырьевыми ресурсами, могущие составить важные статьи вывоза в Россию.

Анализ литературы по теме. Основной источниковой базой для написания статьи явились материалы, хранящиеся в фондах исторического архива Узбекистана, где сосредоточены богатейшие документы по истории Узбекистана колониального периода. В фонде И-1 (Канцелярия Туркестанского генерал – губернатора) имеются материалы о торгово – экономических и политических связях Туркестанского генерал – губернаторства с сопредельными ханствами (Бухарский эмират и Хивинское ханство) и сопредельными государствами (Афганистан, Китай, Персия). Торгово – экономических отношений между Туркестанским краем и сопредельными странами и Россией значительное внимание уделяется в советской литературе. В исследованиях Бунакова Е.В. Рожковой М.К., Халфина Н.А. на основе богатого архивного материала рассматривается весь комплекс вопросов о среднеазиатской политике царизма, освещаются вопросы торговли и позиции русской буржуазии в развитии торговых отношений со Средней Азией.

Методология исследования. При освещении темы использован комплекс исторических методов, таких как объективность, историчность, историческая

последовательность, основанный на систематическом анализе архивных материалов.

Результаты исследования. В период гражданской войны в США в (1861-1865г.г.) ввоз в Россию американского хлопка резко сократился, что привело к уменьшению числа прядильных фирм и падению валового выпуска продукции текстильных предприятий на 13% [2]. После окончания гражданской войны в США наблюдается увеличение численности текстильных предприятий - вывоз хлопка-сырца значительно сократился. Это обстоятельство также оказало влияние на состояние русской текстильной промышленности.

Экономическая и политическая необходимость заставляли русское правительство добиваться собственного сырья и вообще защищать интересы русских предпринимателей и торговцев. Развивающаяся русская текстильная промышленность оказалась в тяжелой зависимости от иностранного сырья, так как основная масса хлопкового волокна поступала из Египта и Америки. Цены на волокно колебались в зависимости от состояния мирового рынка и международной обстановки.

Эта необходимость принуждает русское правительство способствовать более прочному закреплению позиций русского капитала в Средней Азии.

Завоевания Россией территории Туркестана 1864 г., Чимкент октябрь 1864 г., Аулие -Ата (ныне Джамбул), и город Ташкент в июне 1865 г. при повторном наступлении войсками генерал-майора М.Г.Черняева крупных городов Кокандского ханства а затем из всех завоёванных районов в 1867 г. образования Туркестанского генерал губернаторство (которое было упразднено 31 марта 1917 г.- прим. Ш.Б.) - все это оказало влияние на русскую торговую политику в Средней Азии, а также совпадает с периодом дальнейшего, довольно

интенсивного развития промышленности пореформенной России, особенно текстильной.

В период с 1860 по 1890 г.г. объём прядильного производства возрос почти в три раза, а вывоз из-за границы сырья для текстильной промышленности в 14 раз [1].

Завоевание Средней Азии обусловило развитие промышленности, главным образом, связанного с переработкой хлопка (хлопкоочистительные и маслособойные заводы). Но, конечно, это развитие производительных сил целиком подчинено интересам экономики метрополии и носило на себе колониальный отпечаток. Не случайно на территории Туркестанского края развивались преимущественно те отрасли промышленности, которые были связаны с первичной переработкой колониального сельскохозяйственного сырья [3].

Действуя в интересах русских торгово-промышленных кругов, русское правительство, даже в период продвижения русских войск в глубь Средней Азии, придерживалось политики покровительства Среднеазиатской торговле. Ещё в 1859 г. был разрешен беспошлинный ввоз в пределы империи шелка-сырца, хлопка и шерсти [4]. В 1865 г. этот закон был распространён и на сырьё, ввозимое из западного Китая, что означает не ущемление среднеазиатских купцов, а напротив, расширение торговли со Средней Азией. Генерал-адъютант К.П. фон Кауфман, первый генерал-губернатор Туркестана получивший право самостоятельно решать торгово-экономические вопросы [5], со своей стороны ищет пути не только для нормализации, но и развития торговых отношений.

Средняя Азия со второй половины 1880-х, а особенно с начала 1890 -х годов становится сырьевой хлопковой базой империи. С этого же времени возрастает её роль и значение, как рынок для сбыта промышленных товаров метрополии. А с конца 1890 – х и начала 1900 -х годов начинают в той или иной степени реализовываться и другие возможности частичного размещения крестьянского переселенческого населения и извлечения финансового дохода [6].

Огромное значение для развития Средней Азии имели построенные русскими властями железные дороги. Они перерезали весь край в нескольких направлениях и связали наиболее важные в экономическом отношении районы. В ноябре 1880 г. были начаты работы по строительству Закаспийской железной дороги, которая через Кызыл-Арват и Асхабад была доведена до Самарканда, и 15 мая 1888 г. сюда пришел первый поезд. В 1889 г. она прошла через Мары до Кушки, а в 1899 г. до Ташкента и Андижана. В 1900 г. началось строительство железной дороги Оренбург-Ташкент, и 1 июля 1905 г. по ней прошел первый поезд. Оренбургско-Ташкентская железная дорога усилила проникновение товаров из промышленных районов империи, увеличила торговлю с Россией и вывоз хлопка-сырца [7].

Важную роль в организации поставок хлопка-сырца и других товаров играл Биржевой комитет в Коканде, в которую входили представители крупных промышленных и торговых кругов области [8]. С первых же дней своей деятельности Биржевой комитет высказывался в пользу учреждения по районных комитетов по регулированию массовых перевозок грузов по железным дорогам, которому отводилась немаловажная роль в разрешении железнодорожного товарного движения. Комитету пришлось дать отзыв о проектируемой инженером А.Н. Ковалевским линии Коканд-Наманган, ныне Ферганской железной дороге, имеющей известную важность для Ферганы, ибо проведение указанной линии способно было увеличить площадь хлопковых посевов и ускорить культуру незасеянных, но могущих быть орошенными земель [9].

Строительство железной дороги впоследствии, когда Туркестанский край был превращен в монокультурный хлопковый район, имело значение и для обеспечения края продовольственными товарами, в частности хлебом [10].

Заключение и рекомендации. Таким образом, вышеприведенные факты дают нам ключ к пониманию истинных и реальных причин заинтересованности Российской империи в Среднеазиатском сырье и сбыте своей продукции в Средней Азии, а также готовность правительства идти навстречу этим интересам.

ЛИТЕРАТУРА

1. А.М. Юлдашев. Проникновение русского монополистического капитала в экономику Туркестана (1900-1917 г.г.) автореферат канд. дисс., Ташкент 1960. с. 4.
2. А.М. Юлдашев. Указ. соч., с. 5.
3. А.М. Аминов., А.Х. Бабаходжаев. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Т.: «Узбекистан», 1966 г. с. 17.
4. НА Уз, Ф. И-1, оп. 19, д.38. л.41. Там же, оп. 45, д 12, л. 54.
5. А.М. Аминов., А.Х. Бабаходжаев. Экономические и политические последствия присоединения Средней Азии к России. – Т.: «Узбекистан», 1966 г. с. 35.
6. Туркестанский сборник. Т.23. С 67. НА Уз,ф.И-90, оп.1, д 2, л.5. Там же, л. 12.



UDK: 1167(947)

Fotima JUMANAZAROVA,
Fan va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: fotimakuchkarbayevna@gmail.com

O'zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.d X.Yusupova taqrizi asosida

ENSURING WOMEN'S EMPLOYMENT IN THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM IN UZBEKISTAN

Annotation

In this article, special attention is paid to the issue of employment in the social protection of women, because the economic growth of any country is connected with the level of employment of the population. The higher the level of employment of the population, the higher the level of economic growth in them.

Key words: Social protection, coronavirus pandemic, gender equality, International Labor Organization, employment.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ ЖЕНЩИН В СИСТЕМЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье особое внимание уделено вопросу занятости в сфере социальной защиты женщин, поскольку экономический рост любой страны связан с уровнем занятости населения. Чем выше уровень занятости населения, тем выше уровень экономического роста в нем.

Ключевые слова: Социальная защита, пандемия коронавируса, гендерное равенство, Международная организация труда, занятость.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMIDA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINING TA'MINLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda bandlik masalasiga alohida e'tibor berilgan, sababi har qanday davlatning iqtisodiy o'sishi aholi bandlik darajasi bilan bog'lanadi. Aholining bandligi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ulardagi iqtisodiy o'sish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, koronavirus pandemiyasi, gender tengligi, Xalqaro mehnat tashkiloti, bandlik.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda bandlik masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda. Sababi koronavirus pandemiyasi davlatlar iqtisodiyotini orqaga tortdi. Aholining bandligi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ulardagi iqtisodiy o'sish darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Gender masalasida bandlikni tahlil qiladigan bo'lsak, erkaklar ulushi xotin-qizlarnikiga nisbatan 25-27 foizga yuqori. Bugungi kun davlatlari esa aynan bandlik masalasida ayollarning ham ulushini orttirib, iqtisodiy rivojlanish darajasini ushlab qolishga yoki o'stirishga harakat qilishmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, erkaklar va ayollar bandligi o'rtasidagi mavjud farqning atigi to'rt dan bir qismini qisqartirish 2025 yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 3,9 foiz yoki 5,8 trillion dollar qo'shadi. Hozir dunyoda ishlaydigan ayollarning ulushi o'rtacha 50 foizdan oshmaydi, erkaklarning 76 foizidan ortig'i ishlaydi. Rossiyada ayollarning ish bilan bandligi, Rostrud ma'lumotlariga ko'ra, 77 foizni tashkil etadi, bu Yevropaning 51-53 foizidan ancha yuqori[1].

O'zbekistonda bu ko'rsatkich 37,2 foizga teng[2]. Bu Rossiya Federatsiyasiga nisbatan 39,8 foizga, Yevropa mamlakatlariga nisbatan esa 15,8 foizga kam. Shu bilan birga, Rossiya Federatsiyasida erkaklar va ayollar o'rtasidagi ish haqidagi farq Yevropa darajasidan oshib ketdi[3].

O'zbekistonda esa ayollar va erkaklar ish haqi o'rtasida farqlar yo'q. Faqatgina ayrim toifadagi ayollarga mehnat munosabatlarida imtiyozlar bor.

Shuningdek bu kabi imtiyozlar ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam (nogironlar) hamda ayrim toifadagi (voyaga yetmagan farzandlari bor yolg'iz onalar) xodimlarning ish haqiga solinadigan daromad solig'ida ham mavjud. Xotin-qizlar bandligini ta'minlanishi yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, iqtisodiyotni rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu mamlakatning yalpi ichki mahsulotini o'sishiga ham sabab bo'ladi.

2025-yilga kelib mehnat bozoridagi gender farqini hozirgi darajadan 25 foizga qisqartirish global yalpi ichki mahsulotga qo'shimcha ravishda 5,8 trillion dollar yoki 3,9 foiz qo'shishi bizga ayon bo'ldi. Bu XMTning "Dunyo bandligi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish istiqbollari: ayollarni ish bilan ta'minlash tendensiyalari" hisobotida keltirilgan. Shuningdek, ayollar bandligini oshirish 1,5 trillion dollar miqdorida qo'shimcha soliq tushumlarini keltirib chiqaradi. 990 milliard dollar rivojlanayotgan mamlakatlardan, 530 milliard dollar rivojlangan davlatlardan keladi.

Rostrudning ma'lumotlariga ko'ra, ayollar o'rtasida ish bilan ta'minlash bo'yicha Rossiya ko'plab rivojlangan davlatlardan oldinda, ya'ni Rossiya Federatsiyasida mehnatga layoqatli ayollarning 77 foizi ishlaydi va ularning ish bilan band bo'lganlar sonidagi ulushi 49 foizga yetadi[4].

O'zbekistonda esa xotin-qizlarning 45% mehnatga layoqatli tashkil yetadi va ularning ish bilan band bo'lganlar sonidagi ulushi 32,4 foizga teng[5]. (1-diagramma)




2020 yilda O'zbekiston bo'yicha bandlik darajasi

Demak, bu ko'rsatkich Rossiya davlatiga nisbatan 16,6 foizga kam. Bu xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida hali amalga oshirish kerak bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat beradi. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkiloti olib borgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qaysi davlatda kambag'allik va qashshoqlik ko'paysa, o'sha davlatda xotin-qizlar bandligi darajasi ham o'sadi.

Bugungi kunda dunyoda ayollar bandligining ulushi 50 foizdan oshmaydi, erkaklar orasida 76,1 foiz ish bilan

ta'minlangan (so'nggi yigirma yil ichida bu farq taxminan 3 foiz darajaga qisqardi). Rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning ishdagi ishtiroki rivojlangan mamlakatlarga (51,9 foiz) nisbatan bir oz yuqori (70,3 foiz). Mehnatda band ayollarning eng past ko'rsatkichi Arab mamlakatlarida (21,2 foiz), eng yuqori darajasi Afrikaning Sahroi Kabirdan janubgacha (64,6 foiz)ni tashkil etadi.



XMT ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mintaqalarda ayollarning yuqori ish bilan ta'minlanish darajasi asosan aholining qashshoqligi oqibatidir. Shimoliy, Janubiy va G'arbiy Yevropada erkaklar va ayollarning bandlikdagi ulushi o'rtasidagi farq 12,5 foizni tashkil etadi - bu so'nggi 20 yil ichida 8,3 foiz darajaga kamaygan. Ushbu mintaqada ayollar o'rtasida ish bilan bandlikning ko'payishi global moliyaviy inqirozning oqibatlaridan biridir[6].

Tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan shakllantiriladigan ro'yxat asosida maxsus o'qitish dasturi bo'yicha o'qitish belgilandi. Maxsus o'qitish dasturlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan xotin-qizlar orasidan tegishli tuman (shahar) Xotin-qizlar qo'mitasi raisi tavsiyasiga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun 3 yildan ko'p bo'lmagan muddatga 6 oylik imtiyozli davr va yillik 8 foiz stavkada imtiyozli kreditlar hududlarda aholi bandligini ta'minlash va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni kreditlash tartiblari asosida ajratildi. Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan tijorat banklariga har yili ajratiladigan 100 milliard so'm resurs mablag'lari ushbu imtiyozli kredit mablag'larining manbasi bo'lib hisoblanadi. Mazkur resurs mablag'larining kamida 50 foizi qishloq joylarida istiqomat qiladigan xotin-qizlarning biznesini rivojlantirishga yo'naltirildi[7].

Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarining amalga oshirayotgan bu kabi ishlari ularni bandligini ta'minlashga ko'maklashmoqda. Respublika miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar natijasida 2020-yilning oktabr-dekabr oylarida "Ayollar daftari"ni shakllantirish bo'yicha 6,5 million nafar xotin-qizlar bilan muloqotlar o'tkazilgan va uning yakunlari bo'yicha 432 781 nafar ayollar daftarga kiritilgan. Jumladan:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar – 253 210 nafar;
 - boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlar – 36 730 nafar;
 - ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar – 29 072 nafar;
 - uy-joyini ta'mirlashga muhtoj I guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar – 4 252 nafar;
 - noturar joylarda istiqomat qilayotgan, o'zining yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy mavjud bo'lmagan xotin-qizlar – 9 223 nafar;
 - qaramog'ida bir va undan ortiq I va II guruh nogironligi bo'lgan bolalari mavjud yolg'iz xotin-qizlar – 8 112 nafar;
 - tibbiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar – 44 113 nafar;
 - huquqiy yordam olishga muhtoj xotin-qizlar – 24 664 nafar;
 - psixologik maslahatga muhtoj xotin-qizlar – 23 405 nafar[8].
- Statistik a'lumotlarda keltirilishicha, 2021 yil may oyiga qadar "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlash bo'yicha belgilangan vazifalardan quyidagilar amalga oshirilgan:
- 131 274 nafar xotin-qizlardan 34 770 nafarining bandligi ta'minlangan;
 - 36 394 nafar xotin-qizlardan 12 485 nafari kasb-hunarga va hayotgaruhlantirish (motivatsiya berish) bo'yicha

o'qitilgan;

● 15 665 nafar xotin-qizlardan 2 023 nafariga tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanish uchun ko'maklashilgan;

● 69 877 nafar xotin-qizlardan 8 000 nafari tadbirkorlikka jalb yetilib, ularga kredit olishga ko'maklashilgan[9].

Shunday qilib, ayollarning iqtisodiy faolligi va bandligini oshirish bo'yicha siyosatning, shuningdek mehnat bozorida gender farqlarini qisqartirishning samarali va natijaviy chora tadbirlari mamlakatning mehnat salohiyatidan ko'proq foydalanish, iqtisodiy o'sish va rivojlanish, shunga muvofiq esa O'zbekiston aholisi turmush darajasining oshishiga xizmat qiladi[10]. Demak, xotin-qizlar bandligini ta'minlash ularning ijtimoiy hayotidagi muammolar borligidan dalolat beradi. Bu ayniqsa ularning iqtisodiy hayotida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuningdek, 2020 yilda dunyo hamjamiyatini larzaga keltirgan koronavirus pandemiyasi qaysidir davlatlarda kambag'allikning oshib ketishiga yana qaysidir davlatlarda qashshoqlarning ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Bu salbiy ta'sirlar ham O'zbekistonni chetlab o'tgani yo'q. Hozirgi kunda respublikada kambag'allikni qisqartirish bo'yicha jahon tajribasida keng qo'llaniladigan 3 vosita – kambag'al oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish, inson kapitali sifatini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlashdan foydalanilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish, ularni bandligini ta'minlash masalasi lokal hudud misolida tarixiy-qiyosiy, tizimlilik, muammoli-xronologik metodlar asosida, ob'yektivlik tamoyiliga tayanib yoritilgani bois, ulardan mazkur tizimga oid metodologik-uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar. Xotin-qizlar misolida olib qaraladigan bo'lsa, doimiy daromad manbaini yaratish deganda, albatta, ularni ish bilan ta'minlash nazarda tutiladi. Lekin mavjud kambag'allikni qisqartirish evaziga muammoni bartaraf etib bo'lmaydi.

Chunki, birinchidan, O'zbekistonda aholining o'sish suratlari yuqori. Bu istiqbolda aholi tarkibida xotin-qizlarning miqdorini yanada oshishidan dalolat beradi. Demak, bugungi mavjud muammoni bartaraf etish bilan birga kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni ham bartaraf etishni o'ylash kerak.

Ikkinchidan, nafaqat O'zbekistonda butun dunyoda ekologik vaziyat tubdan o'zgarib ketmoqda. Bunga juda ko'p misollarni keltirish mumkin. Mana shunday ekologiyani buzilishi ham turli infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarni vujudga keltirmoqda. Hamda bu kabi kasalliklarning keng tarqalishi natijasida aholi turmush tarzida qator muammolar ham vujudga kelmoqda.

2019 yil 20 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 919-sonli qaroriga[11] ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusi doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy holatini yaxshilash, ularni bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, "ustoz-shogird"

an'analari asosida hunarmandchilik bilan shug'ullanishni targ'ib etish, aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, pillachilik sohasida kasanachilikni kengaytirish orqali bandlikni ta'minlash strategik maqsad va vazifalari ishlab chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, "O'zpxatasanoat" AJ, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, "O'zbekipaksanoat" uyushmasi va "Hunarmand" uyushmasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta muhim tashabbusi doirasida xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari rejalashtirilib, amaliyotga joriy etildi.

Bu jarayonda xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va o'z mablag'lari hisobidan tadbirkorligini tashkil etadigan xotin-qizlarning tuman (shahar) kesimidagi asosiy parametrlari, "O'zpxatasanoat" AJ tomonidan tashkil etiladigan tikuv-trikotaj majmualarida kam ta'minlangan xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash rejasi ishlab chiqildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Chunki respublikada aholining o'sish darajasi nafaqat rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan, balki rivojlangan davlatlarga nisbatan ham yuqoridir. Masalan, 1991 yilga nisbatan 2020 yilni oladigan bo'lsak, mamlakat aholisi 7,4 foizga[12] o'sgan, rivojlangan Yaponiya davlatida bu ko'rsatkich 3,5 foizga[13], Amerika Qo'shma Shtatlarida 1,8 foizga[14], rivojlanayotgan qo'shni Qozog'iston Respublikasida bu ko'rsatkich 2,5 foizni[15], Tojikistonda esa 4,3 foizni[16] tashkil etgan.

Bu tahlillar O'zbekistonda aholining o'sish darajasi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Aholining o'sish darajasi esa o'z-o'zidan tabiiy ravishda respublikadagi ijtimoiy jarayonlarda, jumladan, bandlik masalalarida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Aholining bandligini ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish esa mehnat bozorining samarali mexanizmlarini to'la ishlashini talab etadi.

Xulosa va taklif. Respublikada ayollarning faolligini oshirish uchun barcha ijtimoiy- huquqiy sharoitlar yaratilganiga qaramay, ushbu sohaning holati iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy talablariga to'liq javob bermaydi. Faoliyatning ushbu sohasini takomillashtirish uchun gender masalalarini qayta ko'rib chiqish kerak, chunki bozorni o'zgartirish sharoitida asosiylari mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirishning umumiy muammolaridan kelib chiqadi. Ushbu muammolar aholining bandligi va ayniqsa ayollarning ish bilan ta'minlanishiga ta'sir qiladi. Zamonaviy mehnat bozorini tartibga solish va rivojlantirish jarayonida bandlik muammosi ustuvor ahamiyatga ega. Chunki barqaror ishchi kuchining yo'qligi, to'liq bandlik, mehnat resurslarini maqsadli taqsimlash va ulardan foydalanish bo'yicha oldingi munosabatlarni bartaraf etish uchun alohida vaziyat mavjud. Shu nuqtai nazardan, mehnat bozoridagi o'zgarishlarni, uni rivojlantirish va bandlikka nisbatan tashkilotni shakllantirish yo'llarini, ayniqsa mintaqaviy darajadagi o'zgarishlarni nazariy va amaliy tahlil qilish muhim ahamiyatiga ega.

ADABIYOTLAR

1. Газета "Коммерсантъ". Россия. Гендерному равенству назвали цену. Вовлечение женщин в работу добавит мировой экономике четыре процента. №106 от 16.06.2017. – С. 2.
2. Respublikamizda jami iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichi, jumladan, xotin-qizlar (2007-2020 yillar kesimida). <https://stat.uz/>.
3. Газета "Коммерсантъ". Россия. Гендерному равенству назвали цену. Вовлечение женщин в работу добавит мировой экономике четыре процента. №106 от 16.06.2017, – С. 2.
4. Газета "Коммерсантъ". Россия. Гендерному равенству назвали цену. Вовлечение женщин в работу добавит

- мировой экономике четыре процента. №106 от 16.06.2017. – С. 2.
5. 2020 yilda O'zbekiston bo'yicha bandlik darajasi. <https://stat.uz/>.
 6. Газета “Коммерсантъ”. Россия. Гендерному равенству назвали цену. Вовлечение женщин в работу добавит мировой экономике четыре процента. №106 от 16.06.2017. – С. 2.
 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlar mehnat huquqlari kafolotlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, PQ-4235-sonli.07.03.2019. <https://lex.uz/>.
 8. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlari bo'yicha. Iqtisodiyot va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari.13.04.2021.
 9. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga ko'rsatilgan yordamlari bo'yicha Iqtisodiyot va mehnat munosabatlari vazirligi bergan ma'lumotlar.13.04.2021.
 10. Бандликнинг самарали сиёсати: аёлларнинг меҳнат қилиш имкониятларини амалга ошириш Таҳлилий маъруза. (тўплам) / Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги. – Тошкент, 2014. – Б. 48.
 11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, ular o'rtasida -tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, VQ-919-sonli.20.11.2019. <https://lex.uz>.
 12. История населения Узбекистана (1951 – 2021г). <https://countrymeters.info/ru/>.
 13. O'sha manba. История населения Японии (1951 – 2021г).
 14. O'sha manba. История населения США (1951 – 2021г).
 15. O'sha manba. История населения Казахстана (1951 – 2021г).
 16. O'sha manba. История населения Таджикистана (1951 – 2021г).



UDK :93.1

Ubaydulla QUVVATALIYEV,
Termiz davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
E-mail: kuvvataliyev@mail.ru

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori, t.f.d B.Xasanov taqrizi asosida

THE STUDY OF THE HISTORY OF THE UZBEK PEOPLE IN THE 20S OF THE 20TH CENTURY (AS AN EXAMPLE OF BULAT SOLIYEV'S ARTICLE "UZBEKS ARE TIMUR'S CHILDREN")

Annotation

Dozens of scientific articles and books written by Bulat Soliyev, one of the founders of modern Uzbek schools of historians, are mainly devoted to the history of the region and the history of the peoples who lived in these lands. In his articles and works, Bulat Soliyev tries not to write the history of rulers and other famous people, but to illuminate the history and standard of living of ordinary people who lived in the studied period. In this way, the historian shows that the object of history is not khans and emirs, but ordinary people. This article of the presented historian will undoubtedly be one of the important scientific sources for illuminating the history of the Uzbek people in the 15th-16th centuries.

Key words: Bulat Soliyev, Uzbeks, Central Asia, Temur, Shahrukh Abulhair, Husayn Boyqaro, Shaibanikhan, Movarounnahr, Khorezm, "Bahr ul-asror".

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА В 20-Е ГОДЫ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ СТАТЬИ БУЛАТА СОЛИЕВА «УЗБЕКИ – ДЕТИ ТИМУРА»)

Аннотация

Десятки научных статей и книг Булата Солиева, одного из основоположников современной узбекской школы историков, в основном посвящены истории региона и истории населявших его народов. В своих статьях и произведениях Булат Солиев старается не писать историю правителей и других известных людей, а освещать историю и уровень жизни простых людей, живших в изучаемый период. Таким образом историк показывает, что объектом истории являются не ханы и эмиры, а простые люди. Данная статья историка, несомненно, станет одним из важных научных источников для освещения истории узбекского народа XV-XVI веков.

Ключевые слова: Булат Солиев, узбеки, Средняя Азия, Темур, Шахрух, Абулхайр, Хусейн Бойкара, Шайбанихан, Маваруннахр, Хорезм, «Бахр уль-асрор».

XX ASRNING 20 YILLARIDA O‘ZBEK XALQI TARIXINING O‘RGANILISHI (BULAT SOLIYEVNING “O‘ZBEKLAR HAM TEMUR BOLALARI” MAQOLASI MISOLIDA)

Anotatsiya

Zamonaviy o‘zbek tarixchilar maktablarining asoschilaridan biri bo‘lgan Bulat Soliyevning qalamiga mansub o‘nlab ilmiy maqolalar va kitoblar asosan mintqa tarixiga va shu yerlarda yashagan xalqlarning tarixiga ba‘ishlangan. Bulat Soliyev o‘z maqola va asarlarida yurt tarixini yoritishda hukmdorlar va boshqa mashhur kishilar tarixini yozish bilan emas balki, o‘rganilayotgan davrda yashagan oddiy xalqning tarixi va turmush darajasini yoritishga harakata qiladi. Shu orqali muarrix tarix faning obyektini xonlar va amirlar emas balki oddiy xalq ekanligini ko‘rsatadi. Muarrixning ushbu maqolasi ham o‘zbek xalqining XV-XVI asrdagi tarixini yoritishda muhim ilmiy manbalardan biri bo‘lishi shubhasiz.

Kalit so‘zlar: Bulat Soliyev, O‘zbeklar, O‘rta Osiyo, Temur, Shohruh, Abulxayr, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Movarounnahr, Xorazm, "Bahr ul-asror".

Kirish. Mazkur maqolda Bulat Soliyev tomonidan iste’foda etilgan “o‘zbek” atamasini bugungi o‘zbek xalqiga bog‘lash tarixiy jihatdan unchalik ham to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin. Chunki olim Dashti qipchoqdagi turkiylarning qanday nom bilan atalishlaridan qat’iy nazar, ular Movarounnahrda qardoshlari bilan na til va din b orasida jiddiy tafovutga ega bo‘lmaganlar. Bundan tashqari Dashti qipchoqdagi hukmron elita va Movarounnahrda temuriy shahzodalar yaqin qon qarindoshlik munosabatida bo‘lib kelganlar. Shu tufayli ham olim maqolaga “O‘zbeklar ham Temur bolalari” deb nom bergan bo‘lsa ajab emas. Ushbu maqolada Bulat Soliyevning 1928-yilda “Maorif va o‘qituvchi” jurnalining 5-6 sonlarida nashr qilingan “O‘zbeklar ham Temur bolalari” nomli maqolasini arab alifbosidagi eski o‘zbek yozuvidan tadbil qilish oraqli, XX asrning 20 yillarida jadid tarixshunoslarining tarixiy tadqiqot usullari va yondashuvlari haqida bazi xulosalarga chiqarish imkonini beradi. Maqolani tadbil qilish jarayonida XX asrning birinchi choragida shakllangan o‘zbek

tilining adabiy uslublariga o‘zgartirish kiritmaslikka va so‘zlar eski o‘zbek yozuvida qanday yozilgan bo‘lsa shu holda berishga qaror qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bulat Soliyev ushbu maqolasida bir qator qimmatli asarlarni birlamchi manba sifatida qo‘llaydi.

Jumladan Abdulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” (شجرای ترکی و مغول) asari mazkur maqoladagi Dashti qipchoq va Xorazmdagi voqealar uchun birlamchi manba vazifasini o‘tagan. Shu bilan birga olim mazkur maqolani yozishda olim yana bir qimmatli asardan foydalanadi. Bu asar Mahmud ibn Valining “Bahr-ul asror” yohud “Bahr ul-asror fi manaqib” (بحر الأسرار في مناقب) asari bo‘lib, muarrix bu asarning VI bobidan unumli foydalangan holda, XIII asr oxiri XVI asrdagi Chig‘atoy ulusu va Erondagi voqealarni yoritishga harakat qiladi. Bulardan tashqari mazkur maqolani tayyorlashda olim Habib us-siyar,

Shayboniyoma, Tuzik Temuriy kabi tarixiy manbalardan keng o'rinda foydalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Olim mazkur maqolani yozish davomida, bo'lib o'tgan voqea hodisalarni tarixiy manbalarda ko'rsatilgani kabi, o'quvchi tafakkurida jonlantirishga harakat qiladi. Bulat Soliyev retrospektiv usuldan foydalangan holda voqealar borishini jonlantirishga harakat qilgan bo'lsada, ayni paytda biz maqolani tarixshunoslik tadqiqoti sifatida ham qabul qilishimiz mumkin. Chunki tarixchi maqolada voqea hodisalarni ko'p o'rinda manbalar orqali so'zlaydi.

Tahlil va natijalar. Maqolada olim o'z oldiga qo'yan maqsadlariga erishadi. Jumladan, Movarounnahr shimolidagi turkiy qabilalarning janubga ko'chishi va buning siyosiy oqibatlarini haqida xulosalarini o'rta asrlarda yozilgan manbalar asosida berib o'tadi. Ushbu maqolaning boshqa bir qimmatli tomoni shundaki mazkur maqola dashti qipchoqdagi turkiy qabilalarning XV asrdagi siyosiy boshqaruv tuzilishi borasida mahalliy tarixchilar tomonidan qilingan birinchi jiddiy ilmiy tadqiqot edi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bolsheviklar tomonidan Amir Temur shaxsiyatiga qarshi kurash hech bir vaqtda to'xtagan emas. Ana shunday murakkab davrda Amir Temur nomini o'zbek xalqiga bog'lagan holda katta ilmiy maqola yozish, har bir olimdan ulkan jasorat talab etardi. Ushbu maqolada Bulat Soliyev yangidan tashkil etilgan O'zbekiston davlatining asosini tashkil etgan o'zbeklar tarixidagi bazi masalalarni ilmiy jihatdan, manbalar asosida ochib berishga harakat qilgan. Bugungi kunda jadidlar merosi, ularning g'oya va qarashlarini o'rganish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishida "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" degan edi. Shu tufayli jadid mutafakkirlarimizning asarlari va maqolalarini topish, o'rganish, ularni qayta nashr qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek ismi ostida O'rta Osiyoni istilo qilg'on xalqlarning eski joyi Dashti Qipchoqning bugungi Yoyiq daryosidan olib, Sirdaryoning quyisig'a qadar bo'lg'on yerlardir. Oltun O'rda xonlig'i mayda feodallilarga taqsim qiling'anda Jo'jining o'g'li Shayboniyg'a mazkur yerlar tekkandir. Bular Yoyiq bilan Sirdaryosining to'rtasida yoyilib, qishlab yurganlar. O'zbek muarrixi Abulg'oz Bahodirxon bu to'g'rida quydag'icha yozadi: "Otasi Shaybonxong'a cho'lduk yetib o'n besh ming uyuk el berdi. Boyri elindin qushchi va nayman va qorluq va buyrak bu to'rt uruq elni berdi. Toki aytdikim o'lturur yurtning og'om olchin birla mening oramizda bo'lsin, yozina qirg'iz, sovuqda eling to O'rol tog'inacha Yoyiqning kun tug'ush tarafini yoylog'ing qish bo'lg'anda Qoraqum va Sir suvining bo'yi, Chu suvining oyoqina qishlog'il edi. Shaybonixon ushbu aytilg'on yurtlarni yoylab va qishlab o'lturdi" deydi. "Bahrul asror" egasi ham: Jo'jixon bolasi Shayboniyxon rus, cherkass ulus, bulg'or ustiga bo'lg'on yetti yillik safarida Botuxonning qoshida maqbul va manzur bo'ldi, shuning uchun unga hadiya tariqasida to'rt avmoq (aymoq) berdi" deb Abulg'ozining so'zini ta'kid qiladi. To'rt uruq el berganini "Bahrul asror" ham aytadi. Shuning bilan birga "Bahrul asror" Shayboniyning o'g'li Bahodirning yuz o'rda deb ham mashhur bo'lg'on Oqo'rdani qishloq va yoyloq uchun ixtiyor qilg'onlig'in so'ylaydi. Shaybon va uning bolalari O'rta Osiyoni istilolarig'a qadar

shu o'zlarining udellarida ko'chib, qo'nib yurganlar. Bundag'i o'zbek qabilalarining Temur zamonig'a qadar O'rta Osiyog'a tomon harakat qilg'onliqlari ma'lum emas, ammo Temur zamonida Movarounnahrda hujum qilg'onliqlari so'ylanadi. Temur o'zining tuzukotida o'zbeklarning ta'addudi va zulmlari zo'r bo'lg'onlig'in, Movarounnahrni tinchsizlab turg'onliqlarini yozadi. Movarounnahrda Chig'atoy xonlarining hokimiyat uchun kurashidan istifoda qilib bu mamlakatga mudoxala qilg'onliqlari ko'rinadi. Ammo Temurdan so'ng Movarounnahrda hujumlari ko'prak uchraydi. Hatto Shohrux mirzo vaqtidanoq o'zbeklar Xorazmni istilo qildilar. O'zbeklar boshlig'i Abulxayr Xorazm viloyati volisi Ibrohim sultong'a yozhon talabomasida: "Xorazm eskidan berli Jo'jixonning devonig'a tobe' bo'lib keldi, u viloyatni o'zining vorislariga topshiringiz" dedi, o'zining Jo'ji bolalarining vorisi ekanini da'vo qildi. Xorazm xalqi bo'lsa, o'zbeklarning talabiga qo'shiladular. Xorazmning boshlug'i bo'lg'on Ibrohim sultong'a mamlakatni topshirishni tavsiya qiladilar. Mamlakatning "ulug'larini"ning o'zbeklar tomonida ekanini ko'rgandan so'ng Ibrohim Sulton Xorazmni tashlab Shohrux yonig'a Hirotga qochib boradi. O'zbeklarning Xorazmni istilosi Shohruxqa qattiq ta'sir etdi. Lekin bir narsa ham ishlay olmaydi. Buning sababini quydag'icha ko'rsatadilar: "birinchidan turkmanlarning isyoni, ikkinchidan o'g'lining vafoti, uchinchidan qarilig'i, Xorazm masalasig'a aralashishg'a mone' bo'ldi" deydi. Bu sabablar orasida muhimi isyon masalasidir. Shohrux mirzo vaqtda Temur o'lkasida savdo sarmoyasi o'sgan, mustamlakalarni talash, jabr va zulm kuchaygon edi. O'shaning uchun mazkurdan yiroq bo'lgan viloyatlarda isyonlar ko'rina boshlag'on edi. Shohruxning o'zbeklarga qarshi hech bir chora qila olmag'onig'a shu isyonlar sabab bo'lg'on bo'lsa kerak. Ammo o'zbeklarni Xorazmning "ulug'larini" yaxshi istiqbol qildi, deydi. Mas'ud ibn Usmon Ko'histoniy o'zining tarixida Abulxayrxonning o'g'li Suyunchoxojaning og'zidan eshitib o'zbeklarning Xorazmni olg'onlig'in hamda bularning boshlig'i Abulxayr to'g'risida: "Otam Xorazmni olg'ondan so'ng xazinaning eshigin ochdi. Zamonlarning o'tishi bilan burung'i hokimlarning yiqqon xazinalarin taqsim etdi. Katta amirlardan ikkalasini xazinaning eshigi oldig'a o'tquzdi. Sipohlar va boshqalar ikkita, ikkita bo'lib keldilar, ko'tara olg'oncha olar edilar" deb yozadi. Xorazm "ulamolar va akobiri" Shohrux to'g'risida bir narsa demagani holda Abulxayr haqida ko'p mubolag'a bilan maqtaydilar. Voqe'da Shohruxni maqtash kerak edi, chunki bu kishini Hirot ulamosi vali, sohibi karomat deb maqtaydilar. G'oyat dindor, taqvo, olim va ulamog'a rioyali deydi. Abulxayr bo'lsa, sohibi karomat emas, balki dindor bo'lishi ham shubhalik. Shunday bo'la turib buni maqtashlarida masala ma'lum, bularga Abulxayr ko'p hadyalar bergan. Xalqning oliy tabaqasi o'shalar bo'lg'ondan, shubhasiz bu guruhni o'z tomonig'a og'darishqa tirishqon. Ko'p yillardan berli yig'ilib kelgan xazina ochilib taqsim etilganda bu guruhga muhim hissa tekkan. O'shaning uchun dasht hokimi Abulxayrni Temur bolasi Shohruxdan ortiq ko'rganlar. Hirot ulamo va akobiri saroy doirasida aylanishib Shohruxning doimo in'om va ehsonig'a mazhar bo'lg'onlar. Shuning uchun uni "vali", "sohibi karomat" deganlar, ammo xorazmlilarning undan yiroqliq'i Hirotdag'i hadiya va peshkashlaridan mahrum bo'luvchilig'i Abulxayrga yaqinlashishlarini mujib bo'lg'on. Xorazm akobirining shodliqlarig'a qarshi o'zbeklar bu o'lkada ko'p turmaydilar, Xorazmni tashlab ketishga majbur bo'ladilar, Bahrul asrorning aytganiga ko'ra o'zbeklarning dasht havosig'a o'rganganligi, Xorazmda vabo kasalining paydo bo'lishi bu o'lkani tashlab ketishlarina mujib bo'lg'on. Bu voqe'adan so'ng o'zbeklarning istilo fikrlari bilan O'rta Osiyog'a tajovuzlari ko'rinmaydi. Balki bular Temur bolalarining hokimiyat kurashlarida aralashib turg'onlar. Temur bolalari kurash va

tortishda, taxt uchun taloshlarda bularning himoyasiga sig'ing'onlar. Mag'lub tomon o'zbeklarga kelib iltijo qiladi. Yordam berishlarini so'raydi. O'zbeklar albatta yo'q demadilar. Yordamning bekorga bo'lmag'usini biladilar shuning uchun Abulxayr ba'zan o'zi, ba'zi vaqtda amirlarining qo'li ostida askar yuboradi. Shohrudan so'ng boshlang'on taxt kurashida Shohruxning nabirasi Alouddavla, Ulug'bekning nabirasi Mahmud Jo'ki, Mironshoh bolalaridan bo'lg'on Sulton Abu Said, nihoyat Husayn Boyqaro kabilar doimo o'zbeklarga murojaat qilg'onlar. Alouddavla Abulxayrning yordami soyasida ... o'g'li Hirotg'a o'runchadilar. Sulton Abu Said Movarounnahr uchun kurashda yengilib Turkiston tomong'a ketishga majbur bo'ldi. U zamonlar Movarounnahrda o'zining katta boylig'i, buyuk bir feodal darajasida zo'rliq'i bilan shuhrat chiqazg'on Ho'ja Ahror ismida bir eshon bor. Buning xalq orasida nufuzini, Movarounnahr xalqining ko'pisi buning dehqoni ekanini Sulton Abu Said juda yaxshi biladi. Shuning uchun bu eshonni izlab Toshkant uyazdidag'i Parkent qishlog'ina boradi. Bunday fursatni kutib turg'on eshon uchun Abu Saidning kelishi zo'r g'animat sanaladi. Xo'ja Ahrorning kengashi va maslahati bilan Abu Said Abulxayrxong'a murojaat etib yordam so'raydi. Abulxayr albatta yo'q demaydi, butun Movarounnahr, balki Iroq va Xurosonni Abu Saidga olib beradi. O'zbeklar shu yordamlari barobarig'a ko'p g'animat oladilar. Eng qimmatli zahiralalar, hadiyalarni Abulxayrning oldig'a qo'yadilar. Ulug'bekning to'rtinchi qizi bo'lg'on Robiya begimni Abulxayrg'a beradilar. Bu qadar mol va hadiyalarning o'zbeklar uchun ahamiyati albatta katta. Bundan so'ng Xo'ja Ahror juda ulg'ayadi. Abu Saidning birdan bir mushoviri bo'lib, mol mulkini yana ortiradi. Muhammad Jo'ki ham abulxayrg'a murojaat etib, mulkiga ega bo'lishni xohlag'anini bildiradi va yordam berishni iltimos qiladi. Abulxayr Burga Sultonni chaqirib: menim davlatimda sendan boshqa bu ishga mustahaq kishi yo'q sen bor, shu Temur bolalarini bu falokatdan qutqor, mazmunida so'ylab, bir miqdor askar berib Muhammad Jo'ki bilan yuboradi. Lokin Jo'ki bilan Burga orasida xottu harakatda itilof chiqqonidan bu safar mavaffaqiyatsizlik bilan bitdi. Nihoyat Temur bolalari orasida o'zining shoirligi bilan shuhrat chiqarg'on Husayn Boyqaro ham o'zbeklarga murojaat etadi. Bunga Abulxayrxon huzuriga kelishni "Habib us siyar" sohibi quydag'icha tasvir etadi: "Boqaroning kelishini eshitgandan so'ng Abulxayrxon o'zining nuyon va akobirini unga qarshi istiqbolg'a chiqoradi. Boqarog'a xon xuzuriga kirganda tobug' qilishni taklif etadilar. O'zbeklar qoshida tobug' qilish, boshidag'i ko'lohni chiqazib ruku qilg'on kabi bukilib, bir qo'ling bilan bir qulog'ingni ushlab taxt qarshisida turushdan iboratdir. Lokin Husayn Boyqaro buni qabul etmaydi. Nihoyat xon huzuriga kirganda tizzani bukishga rozi bo'ldi. Xon zo'r ehtirom bilan uni qabul qildi, o'zining yonig'a o'tquzdi. Bazm yasadi, qimiz, sharob, bol (asaldan yasalg'on musallas) icha boshladilar. Majlis qizig'ondan keyin Abulxayrxon boshidag'i qalpog'ini olib Boyqarog'a tobug' qildi. Siz bizga kirganigizda tobug' qilmasangiz ham men sizga qilaman, dedi. Boyqaro ham o'rmdan sakrab turib Abulxayrga tobug' qildi. Abulxayrning yonida bir qancha vaqtlar turdi. Abulxayrda ko'p askar bilan Xurosonni istilo qildirish fikri bor edi. Lokin shu vaqtlarda o'lib ketishi sababli bu yordam vujudga chiqmay qoldi" deydi. Bundan so'ng Abulxayr boshliq bo'lg'on o'zbek eli tarqaladi. O'zbeklar orasida chiqqan hokimiyat janjali bulardag'i birlikka katta zarba berdi. Bu o'zbek elini tarqalg'oni haqida Abulg'ozni quydag'icha so'ylaydi: "Abulxayr tug'ilishi do'stlarini kuldurub, dushmanlarni yig'latib yurgan kishi erdi. To'rt yonidag'i o'lturg'on qarindoshlarining hech qaysini tiri o'tmagan va qo'li yetmagani yo'q edi. Ul sababdian barchasi bosh ko'tardilar. Toki Abulxayrxonni o'lturdilar, oning garchi

o'g'li va nabirasi ko'p erdi, andog' ham bo'lsa ko'p dushman qo'l suqti, o'g'lonlarning bir nechasin o'lturdi. Qolg'onlari to'rt yoqqa qochdilar, ko'p elning barchasin to'rt yoqqa tuzdurdilar" deydi. Bundan so'ng bira tomondan qozoqlar ikkinchi tomondan mang'itlar mudoxala qilib o'zbek birligiga katta zarba berdilar. Abulxayrning bolalari tarqalib bitdilar. Bu tarqalg'on elning takror yig'ilishida bularning boshidan Abulxayrning nabirasi Shaybonixon ko'rinadi. Shayboniy o'ziga qarag'an bir qadar o'zbeklar bilan boshida Turkiston dalalarida So'zoq, Sig'noq, Arquq shaharlarining atrofida qozoqliqda yuradi. Bulardan xorij qozoq va mo'g'ullarning Movarounnahr ustida, Turkiston dalalarda kurashlari bor. Bular ham o'lkani qo'lg'a tushirish uchun talashadilar. Ikkinchi tomondan o'zbeklarga qarshi tajovuz yo'l ushlab, kengilarni zazyiq ostida qoldirdilar. Qozoqlar bilan mang'itlar birlashib O'rdag'a hujum etadilar. Mavlono Binoiy o'zining Shayboniy nomasida qozoqlarning kurashini quydag'icha yozadi: bir necha kundan so'ng xabar keldikim Burunduqxon va Qosim Sultonkim Jonibekxon (Qozoqxoni)ning avlodidandurlar va Atik Sulton va Hamzabek ittifoq etib lashkari Begaron bilan Sig'noq ustiga yurush etibdurlar. Xon qal'anining atrofni ehtiyot etib o'lturdi, chun Burunduqxon keldi, qal'ani atrofni muhosara qilib har tarafdin urush boshlar erdi. Andin so'ng Burunduqxon tamomi umaro va lashkar va Jonibekxonning farzandlari va mang'it lashkari bilan Sig'noqqa kelib harchand jaddu jahd qildilar, hech vajh bila qal'aga dast topa olmay xoib va xosir qaytillar". Oxirul amr maslu qozi sadr val islom va chaqmoq yuz va Siddiq shayx boshliq tamomi Sig'noq aholin talab etib dedilarkim burundin bu viloyat Burunduqxonig'a mutaalliq erdi. Emdi munosib budurkim bu viloyatni Burunduqxonig'a berila taftina taskin topqay. Bas bir kun Shayboniyxon O'zgand tarfig'a borib erdi, ul jamoa majol topib Burunduqxonni talab etib Sig'noq qal'asin unga taslim etdilar" deydi. Qozoq va mang'itlarning bir bo'lib o'zbeklarning viloyati ustida kurashin ochiq suratda etadi. Bu kurashlarda o'zbeklar zaiflanadi, Buxorog'a Abduloliy tarxonning yonig'a keladi. Bu kishi burun vaqtda Abulxayrdan yaxshiliklar ko'rgandan, Shayboniyga ko'p iltifotlar ko'rsatadi. Bu vaqt Movarounnahrda mo'g'ul xonlari hujum qilib turg'ondan, o'zbeklarga Temur bolalarining ehtiyoji juda zo'r edi. Shuning uchun Samarqand xoni Sulton Ahmad Shayboniyning Samarqandg'a chaqirtiradi. Mo'g'ullarg'a qarshi urushda ishtirok qilishni, yordam berishlarini so'raydi, lekin bu Shayboniy qo'li ostidag'i o'zbeklar samarqandlilarga yordam berish emas, balki mo'g'ullarg'a qo'shuldilar. Buning sababini Sulton Ahmet mirzoning o'zbeklardan qo'rqishi deydi. Yordamg'a chaqirg'on bo'lsalarda so'ngidan o'zbeklardan bo'rqub ko'chishlardan shubhalanib bularni yo'qotish fikridi bo'lg'on deydi. Yozma Shayboniyнома bu to'g'rida: "Sulton Ahmet mirzo mo'g'ulg'a cherik qo'rab borurda Muhammad Shayboniyxonni to'yi bisyor takliflar qilib chorlab turur, ul holda havodor kishilardan pinhoni xabar berib tururlarkim sizga yomonliq sog'inadurlar debdur. Bu xabarni bilib o'zin ehtiyot qilib ikki – uch yuz navkarlaridin mustaid qilib o'zi birla mirzoning eshikiga olg'och kelib turur. Mirzo qoshinda xon kirganda havl uyining eshigin olib bu mustaid navkarlarin va yasovullarin eslamay har birin urub yiqib kelib o'lturg'anda mirzo va barcha beklar ul yig'indag'i navkar tamom bularning bu tavr kelib o'lturg'onidin bisyor va ham aytibdurlarkim agar ushbu navkarlari birla ham bizga qasd qilsalar barchamizni qirarlar, andin so'ng ko'k gumbazga yetkanada yomonliqlarni angiz etib mehmondorliq qilaydeb chorlab tururlar. Andog'a kelgan bekga xon aytib dururkim men sizlarning fikringizni bilib tururmen, sizlar sog'inmangizkim men sort lardek sizlarga bo'yun sunub turg'oymen, bu fikrlaringizni qo'yub bizning birla burung'idek yaxshilik ustida bo'lsangiz, borib! Yog'ilaringizni yog'ilaymen va sizlar birla bo'loyin, yo'q agar

bu so'zingizni qo'ymasangizlar to'yingizg'a bormaymen va agar borsam ko'pingizni qirarman deb aytubturur". Ikki orada hosil bo'lg'on shunday sovuqliq natijasida Temur bolalari bu o'zbeklardan yordam ololmaydilar. Bu vaqtlar ya'ni o'zbeklarning istilosi oldida Movarounnahr g'oyat mayda viloyatlarga bo'lingan, har birisi mustaqil bo'lib, bir markazga tobiot etgan. Samarqandda Mirzo Ahmad Sultonning o'g'li Sulton Ali Mirzo hokim, buning so'ziga farmoyishiga viloyatlar emas, balki, o'zining yonidag'i amirlari ham quloq solmaydi. Bunda hokimiyatdan faqat ismigina qolg'on. Butun hukumat ishlari amirlar qo'lida bo'lib, Sulton Ali Mirzoning hech bir ahamiyati yo'q. Hatto buning yeydig'on ovqotin ham amirlar o'lchab beradilar. Tilaganicha osh, oshab – ichish o'z ixtiyorida emas. Kuniga go'sht berganlarida bir put go'shtni kuchiga beradilar. Ming mashaqqat bilan o'shani ham kuchga oladig'on bo'lg'on. Ammo hokimiyat masalasi tamomi bilan amirlar qo'lida bo'ladi. Binoiy ham Sulton Ali Mirzoning ahvoli tang, hokimiyat buning ixtiyorida emasligin yozadi. Movarounnahrning markazida bo'lg'on xonning ahvoli shu bo'lg'ondan so'ng, markazdan yiroq bo'lg'on Farg'ona,

Buxoro kabi viloyatlarning qanday bo'lishlig'i ma'lum. Movarounnahrda savdo sarmoyasi o'sgan vaqtida xalq ko'pgina, bular shubhasiz mustamlaka hisobig'a yashab ulardan ketirilgan boyliq hisobig'a o'sgan. Amir Temur o'ttiz olti yil bo'yi Ozarbayjon, Eron, Shom, Hindiston kabi o'lkalarning boyliqlarin tashig'on. Temurning o'g'li Shohruxdan so'ng mustamlakalıklar ajralg'och, bularning yelkasida tirikchilik qiluvchi Movarounnahr shubhasiz tushuga majbur bo'ldi. Shuning natijasida o'lka maydalandi, hokimiyat janjali kuchaydi. Temur, Shohrux, Ulug'beklar vaqtida vujudga kelgan madaniyat o'zbeklar istilosidanoq yemiriladi Temurlarning so'ngi vaqti hokimiyat uchun kurash, burun vujudga kelgan madaniyatni yemirish bilan o'tdi. Bularning so'ngi vaqtin o'sha Temurlardan bo'lg'on va bular orasida eng mustaid hisoblang'on Bobir Mirzo o'zi yozadi. Bobinomasida bu xususlarida tafsilli ma'lumot beradi. Buning yozishig'a qarag'anda, mamlakat g'oyat mayda qismlarga bo'lingan, Hisor tomonlarda bir to'qtovsiz urushlar bo'lib turg'on.

ADABIYOTLAR

1. Абуғозий. Шажараи турк. Т.: «Чўлпон», 1992 – Б 187.
2. Mahmud Iban-i-Amir Wali. Bahrul-Asrar. Academy of Sciences, 1981– P 332.
3. Tuzuk-i-Temuri. Published by Fadl al-Haqq Bombay, 1908 – P 328.
4. [Ghiyas al-Din Khvand Mir](#). Habibu's-siyar. Department of Near Eastern Languages and Civilizations, Harvard University, 1994 – P 697.



Ozodbek NE'MATOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

T.f.d., professor X.Yunusova taqrizi asosida

JIZZAX VA NAVOIY VILOYATLARIDA TURIZM: IMKONIYATLAR VA IJTIMOYIY-MADANIY OMILLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jizzax va Navoiy viloyatlarida turizm salohiyati hamda mavjud turistik obyektlar hamda ularning holatida ichki va tashqi turizm rivojida Jizzax va Navoiy viloyatlarining turistik potentsiali ilmiy adabiyotlar hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax, Navoiy, turizm.

ТУРИЗМ В ДЖИЗАКСКОЙ И НАВОЙСКОЙ ОБЛАСТЯХ: ВОЗМОЖНОСТИ И СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ФАКТОРЫ

Аннотация

В данной статье на основе научной литературы и статистических данных анализируются и освещаются потенциал туризма в Джизакской и Навоийской областях, а также существующие туристические объекты и их состояние в развитии внутреннего и внешнего туризма, туристический потенциал Джизакской и Навоийской областей. данные.

Ключевые слова: Джизак, Навои, туризм.

TOURISM IN JIZZAKH AND NAVOI REGIONS: OPPORTUNITIES AND SOCIO-CULTURAL FACTORS

Annotation

In this article, the potential of tourism in Jizzakh and Navoi regions and the existing tourist facilities and their status in the development of domestic and foreign tourism, the tourist potential of Jizzakh and Navoi regions are analyzed and illuminated based on scientific literature and statistical data.

Key words: Jizzakh, Navoi, tourism.

Kirish. Turizm salohiyati sohani rivojlantirish va unga zarur shart sharoitlar yaratishning asosidir. Ushbu faoliyat, turizm industriyasi va turistik va rekreatsion hududlarni faollashtirishni talab qiladigan tarixiy-ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy kategoriyadir. Bunda turizmga e'tibor qaratilayotgan regionning zarur ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini anglash, alohida hududlarning mamlakatning mavjud turizm salohiyatidagi o'rniga e'tibor qarashini talab qiladi. Turizm sohasi va industriyasini rivojlantirish o'sha hududning iqtisodiy va geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi, kurort hududlari, yodgorliklari, tarixi va madaniyati qay darajada rivojlanganligini anglashga imkon beradi. Ta'kidlash joizki, mahalliy va xorijiy amaliyotga ko'ra turistik resurslarni baholashda turizm resurslari holatini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yirik turizm salohiyatiga ega hudulardan hisoblangan O'zbekistonning Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlari o'zining tarixiy-madaniy, rekreatsion, ziyorat, ekoturizm imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqotda mintaqaning quyidagi salohiyati, omillari, tarixiy xususiyatlari va imkoniyatlarining ayrim jihatlarini keltirib o'tamiz:

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Jizzax viloyatida turizm sohasining tarixshunoligi masalasiga to'xtalsak, tadqiqotchilar B. Musaev, M. Abdumurodova, S. Markaevlar Jizzax viloyati shaharlari rivojida turizmning rolini iqtisodiy, ijtimoiy-demografik hamda geografik omillar asosida tadqiq etib, asosan shaharlarning turizm rivojiga qo'gan hissasiga, urbanizatsiya jarayonlarining turistik marshrutlar rivojidadagi o'rnini yortiganlar. N. Sadinova esa Jizzax viloyatining turizm salohiyati hamda imkoniyatlarini viloyat turistik ob'ektlari va turistik zonalarini misolida tadqiq etgan.

Tahlil va natijalar. Jizzax viloyatining turizm salohiyati, moddiy va nomoddiy-madaniy meros namunalari -

Jizzax viloyati geografik jihatdan O'zbekistonning qoq markazida joylashgan bo'lib, mamlakatning qadimiy shaharlari va turistik markazlari Toshkent va Samarqand viloyatlarini o'zaro bog'lab turadi. Viloyat markazi Jizzax shahri geografik jihatdan O'zbekistonning janubiy va shimoli-sharqiy qismlarni bog'laydigan transport uzulida joylashgan. Jizzax shahridan Buyuk O'zbekiston avtomobil yo'li (Toshkent - Termiz) va Toshkent-Samarqand temir yo'li o'tadi. Bunday holat turizm imkoniyatlari rivojlanishiga va mintaqa iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jizzax shahri markazda joylashganligi sababli mamlakatlar bu hududdan o'tadigan yo'llar orqali barcha mintaqalar iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni amalga oshiradilar. Jizzax viloyatida tog' tizmalari, tekisliklar, adirlar va Nurota, Morguzar va Turkiston yon bag'irlari o'zaro tutashib, noyob iqlim va tabiiy landshaftlar vujudga keladi. Bundan tashqari, tabiat kengliklari, buloqlar, g'orlar, Zomin, Baxmal va Forish tumanlaridagi tarixiy yodgorliklar mintaqaning qulay joylardan biri ekanligini anglatadi. Bu esa dam olish maskanlari va hattoki alpinizmni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi[1].

Tabiiy-geografik omilga ko'ra Sangzor daryosi bo'yidagi Ilono'tti tog' yo'lagi Nurota tizmasini Molguzar (Morguzar) tizmasidan ajratib turadi. Nurota tizmasining janubiy-g'arbiy tarmog'i Oqtog' bo'lib, uning eng baland cho'qqisi Taxtko'h deb atalib, u dengiz sathidan 2005 metr balandda joylashgan[2]. Morguzar va Nurota tog' tizmasi janubdan shimoliy-g'arbiga tomon cho'zilgan bo'lib, geografik-hududiy jihatdan Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari hududida joylashgan. [3] Tog' shimol tarafdin Haydarko'l (Aydarko'l)ga, shimoliy-g'arbdan Qizilqum cho'llariga tutashgan, tog'ning g'arbiy qismi tekislik, sharqiy qismi esa Nurota vohasi orqali Oqtog', Qoratog' va shu orqali Qo'ytosh tog'lariga tutashib ketadi [4].

Viloyat hududida yirik tog' landshafti hisoblangan Nurota va Qo'yotsh (Nurota tog' tizmasining davomi) tog'lari joylashgan bo'lib, tog'ning ikki tarafida kattaligi jihatdan O'zbekistonning yirik Forish hamda G'allaorol tumanlari joylashgan. Mintaqaning geografik jihatdan qulayligi qadimdan sayohatchilar hamda tadqiqotchilarning doimo e'tiborida bo'lib kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha Xitoy bilan Evropani bog'laydigan «Ipak yo'li» ning bir tarmog'i Nur, Mingbuloq botig'i hamda Xorazm orqali Volgagacha borgan, shu orqali g'arb va sharqni bog'lovchi ikki yo'lni o'zaro tutashtirgan. Biri Zarafshon vodiysi orqali o'tgan bo'lsa, ikkinchisi Nur vohasidan o'tgan[5].

Bu yerdagi turistik marshrutlar, xususan, Jizzax viloyati shaharlari, tabiat va dam olish maskanlari, Morguzar (Molguzar), Nurota va Turkiston tog' tizmalari, havzaning betakror landshaftlari, Sangzor daryosi hududning turistik boyligi hisoblanadi. Zomin, Baxmal va Forish hududlari esa katta tabiiy hududlar sifatida mintaqaning diqqatga sazovor joylari hisoblanadi. Bu erning tog'li va qir adir landshafti turizm marshrutlarini ochish imkonini beradi[6].

Agar tabiiy turistik manzil sifatida vohaning Zomin va Baxmal tumanlarining tog'li hududlari qarag'ay o'rmonlari bilan qoplanganligiga e'tibor qaratsa, o'ziga xos flora va fauna shakllanganligiga guvoh bo'lish mumkin. Mamlakatda yagona Zomin tog' o'rmon qo'riqxonasi ularni muhofaza qilish, asrash va ilmiy tadqiqot olib borish uchun qulaydir. Qo'riqxonada yoshi 180 va hatto 400 yil bo'lgan archa daraxtlari, "Qizil kitob"ga kiritilgan Turkiston silovsinlari, oq ayiqlar, arxarlar, qor qoplonlari va boshqa hayvonlar uchraydi. Viloyatda 1976 yilda tashkil etilgan Zomin milliy bog'i, asosan shimoliy yon bag'irlarida Turkiston tog'lari, dengiz sathidan 1000-4000 metr balandlikda Morguzar tog'lari joylashgan. U 45590 gektar maydonni egallaydi". Bugungi kunda Jizzax viloyatida turizm bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar 11 ta, 2019 yilda esa ular 18,5 ming kishiga xizmat ko'rsatadi. 2019 yilda Jizzax viloyatida mehmonxonalar va shunga o'xshash dam olish joylarida joylashtirilgan dam oluvchilar soni 38984 kishini tashkil etgan edi, shundan 1683 nafari MDH davlatlaridan, 1675 nafari xorijiy davlatlardan tashrif buyurgan[7].

Viloyat turistik ob'ektlari orasida 427 ta madaniy ob'ekt davlat muhofazasiga olingan, shundan 100 tasi tarixiy obidalar, 268 tasi arxeologik yodgorliklar, 59 ta yodgorlik. 2021-yil holatiga ko'ra, viloyatda 4190 o'rinli 171 ta turar joy obektlari mavjud bo'lib, shundan 33 ta mehmonxona, 7 ta yotoqxona, 2 ta kemping, 1 ta dam olish maskani, 11 sanatoriy va pansionatlar, 115 ta mehmonxona mavjud. 2023 yil ma'lumotlarga ko'ra bu erda 512 o'rinli 54 ta yangi turar joy muassasasi tashkil etildi. Shulardan 3 mehmonxonalar (160 ta yotoqxona), 1 ta yotoqxona (12 ta yotoqxona), 50 ta mehmon uyi (450 ta) joylar mavjud.

Zomin turistik-rekreasion zonasi- Zomin va Sanzor daryolari havzasida joylagan bo'lib, 50 ming gektar maydonni egallagan Zomin milliy bog'i 1978 yilda tashkil etilgan. 2023 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zomin» turistik-rekreasion zonasini va xalqaro umummaysumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoniga ko'ra yangidan tashkil etilgan. Parkni yaratishdan asosiy maqsad Zomin» turistik-rekreasion zonasini tashkil etish va Turkiston tog'larining shimoliy so'l yon bag'irlaridagi xos noyob va nisbatan o'zgarmagan tabiiy komplekslar (landshaftlar), xususan, tizmaning shu qismidagi boy va xilma-xil archa o'rmonlarini himoya qilish bo'lgan. Bu Markaziy Osiyodagi eng baland va eng zich o'rmonlardir. U bugungi kunda Pomir-Oloy tizmasida joylashgan himoyalangan archa o'rmonlarining yagona massividir. «Zomin» turistik-rekreasion zonasi dengiz sathidan 1000 m dan 4300 m gacha va barcha baland tog'li landshaftlarni

qamrab olgan bo'lib, Pomir-Oloy tog' tizmasining shimoliy yon bag'irlariga xos turistik rekreasion zonadir[8].

Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va turistik chodirlar – Aydar ko'li Jizzax shahrining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan ichki yirik suv havzasi. Forish va Arnasoy tumanlari hududidagi mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyuruvchi asosiy maskan hisoblanadi. U Sirdaryoning to'lib oqishi natijasida hosil bo'lgan yirik suv havzasidir. Hududda yovvoyi hayvonlar, endemik va ko'chib yuruvchi qushlarning har xil turlari, pelikani, qizil g'oz va oq dumli qushlar alohida qiziqish uyg'otadi. Ko'lning janubiy qirg'og'ida yovvoyi hayvonlar va noyob turlarni saqlab qolish maqsadida Nurota-Qizilqum biosfera rezervati tashkil etilgan. Aydarko'l baliqlarga boy, shuning uchun ko'l atrofidagi kichik qishloqlar aholisi baliqchilik bilan shug'ullanib, ko'lda tirikchilik qiladi. Mintaqaga tashrif buyurgan sayohatchilar uchun baliq ovlash, qayiqda sayr qilish, yovvoyi tabiat va noyob qushlarni tomosha qilish kabi keng ko'lamlı tadbirlar tashkil qilingan[10].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi 347-son qarori bilan Aydar-Arnasoy ko'llari tizimining biologik resurslaridan foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'risidagi Qarori tasdiqlangan. Qarorda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tabiatni muhofaza qilish va biologik resurslardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash;

tizimning biologik xilma-xilligini saqlash, shuningdek, suv havzalarida baliqning yangi turlarini etishtirish va ularni baliqchilik tarmog'iga kiritish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, baliq etishtirish klasterlarini tashkil etish orqali baliq etishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va eksport qilishni jadal rivojlantirish;

havaskor va sport baliq ovlash turizmini, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistik xizmatlar hajmini oshirish tasdiqlangan[11].

Bu borada O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoyev 2021 yilning 8 noyabrida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimida ekoturizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilishda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining ekologik holatini yaxshilash bo'yicha dastur qabul qilish, uning doirasida suv sathini barqaror saqlash va sho'rlanish darajasini kamaytirish choralari ko'rilishi belgilangan.

«Safari» dam olish chodirlar turistik maskani Aydarko'lning g'arbiy qirg'og'idan 5 km uzoqlikda, Do'ng'elek qishlog'i yaqinida, Qizilqum cho'lining markazida, Nurotadan 60 km uzoqlikda joylashgan. Ayni paytda bu O'zbekistondagi eng katta va eng qulay o'tov lagerlaridan biri. Oromgohda 20 ta chodir uylar doimiy ravishda o'rnatilgan. Ular mahalliy hunarmandlar tomonidan qo'lda yasalgan gilam va sherdaklar bilan bezatilgan bo'lib, rangli mato naqshlari va qandillar chodirda bayramona muhit yaratadi. U qo'y junidan o'ralgan yog'och, tayoq va kigizdan yasalgan oddiy tabiiy materiallardan tayyorlangani uchun ekologik jihatdan qulay. Turistlar oqshomni olov atrofida, g'ayrioddiy sokin va osoyishta muhitda mahalliy oqinning (milliy qo'shiqlar ijrochisi) qo'shiqlarini tinglab o'tkazadilar. Sayyohlar cho'lining o'rtasida 250 km ga cho'zilgan betakror Aydarko'l ko'lga 1-2 soatlik tuyada sayohat qilishlari, bu erda yangi tutilgan baliqlar bilan tushlik qilishlari, dam olishlari mumkin. Chodirlardan uncha uzoq bo'lmagan joyda mahalliy aholi qo'lda osh tuzini qazib oladigan noyob ko'llar majmui mavjud.

Navoiy viloyatining turizm salohiyati, moddiy va nomoddiy madaniy meros namunalari. - Navoiy viloyati – Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari bilan bir qatorda sayyohlar tashrif buyuradigan yirik maskanlardan biridir. U ulkan tarixiy, madaniy va etnografik salohiyatga ega hudud

hisoblanadi. Bu erda 35 ga yaqin arxeologik yodgorlik, 71 me'moriy yodgorlik, 32 ta monumental san'at yodgorligi va 8 ta muzey mavjud. Ajoyib tabiat, qadimiy davrning noyob tarixiy-me'moriy yodgorliklari - Raboti Malik karvonsaroyi, betakror Sardoba suv ombori, Qosim-shayx majmuasi, Mavlono Orif Deggaroniy masjidi, Chashma majmuasi, Iskandar Zulqarnaynning vayron bo'lgan qal'asi, Sentob qishlog'i (Turizm qishlog'i) mashhur. Dungalak qishlog'i va dunyoga mashhur ochiq osmon ostidagi muzey - Sarmishsoy darasining petrogliflari - bularning barchasi o'ziga jalb etadi. Bugungi kunda To'dako'l va Aydarko'l ko'llarida turizm rivojlanmoqda. Masalan, 65 gektar maydonni egallagan To'dako'l suv omborining janubiy qirg'og'ida ko'ngilochar va sohilda dam olish maskanlari paydo bo'lmoqda. Aydarko'l ko'lida va uning atroflarida shifobaxsh tuya suti, baliq ovi, ko'l bo'ylab sayr ommalashib bormoqda. Senob va Nurota shaharlarida madaniy, rekreatsion va jamoat turizmi rivojlanmoqda[14].

Navoiy viloyatining turistik manzillari:

Iskandar Zulqarnayn qal'asi (miloddan avvalgi IV asr); CHashma majmuasi; Koradara qal'asi (miloddan avvalgi V asr); Dungalak qishlog'i; Qosim-shayx majmuasi (XVI asr); Mavlono masjidi Orif Deggaroniy (XI asr); Mir Said Bahrom maqbarasi (X-XI asrlar); Rabot Malik karvonsaroyi (XI asr); Sardoba suv ombori (XI asr); Tosh masjidi va minorasi (XVI asr)[15].

Mazkur mintaqada tabiiy rekreatsion va madaniy turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu erda Sarmishsoy qoya tosh suratlari joylashgan. Navoiy shahridan 30-40 km shimoli-sharqda Nurota tog'larining janubiy yon bag'irlarida joylashgan Sarmishsoyda 200 dan ortiq tarixiy rasmlar topilgan. SHu jumladan, qabristonlar, chaqmoq toshlar, va eng yirigi qoya rasmlari e'tiborga loyiqdir. Sarmishsoy majmuasining bir qismi, 2,5 km uzunlikdagi darada turli tarixiy chizmalar, daraning markaziy qismidagi qora qoyalarda asosan to'plangan va barcha tekis yuzalarga ishlangan bitiklar va rasmlar turistlar e'tiborini o'ziga jalb qiladi.

Sentob turizm qishlog'i- Nurota tog' tizmasidagi tog'li Sentob qishlog'i dengiz sathidan 1650 metr balandlikda joylashgan aholi maskanidir. Bu erda muqaddas Fozilmon ko'li ham joylashgan. Qishloqda 2000 dan ortiq aholi istiqomat qiladi va uy-joylarning aksariyati taxminan 2000 yil oldin toshdan qurilgan va vaqt sinovidan o'tgan me'moriy yodgorliklardir. Qishloq o'zining gastronomik turizmi (oshxonasi) bilan mashhur va ko'plab taomlarni sevuvchi turistlarni o'ziga jalb qiladi. Mahalliy aholi quritilgan meva etishtirish, asalarichilik bilan shug'ullanib, o'rik, tut va yong'oq, sut mahsulotlari etishtirib, sayyohlarga xizmat qilmoqdalar.

2023-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan UNVTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi doirasida Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi Sentob qishlog'i "Eng yaxshi turizm qishlog'i" nominatsiyasiga ega bo'ldi. Qishloq aholisi o'z mahoratlarini keksa ajdodlardan avlodlarga o'tkazib, ularga o'z mahoratlarini puxta o'rgatib, an'anaviy ustaxonalarini saqlab kelmoqdalar, hunarmandlar qo'y junidan zamonaviy anjomlar – murakkab bezatilgan kiyim-kechak, to'shak va gilamchalar to'qydilar. Qishloqqa kelgan sayyohlar mahalliy aholi tomonidan to'qilgan, ishlangan va ishlab chiqarilgan qo'lda yasalgan buyumlarni xarid qilib, an'naviy kashtalar bilan bezatilgan mehmonxona va mehmon uylarida qolishlari mumkin bo'ladi.

Turistik qishloq o'zining gastronomik turizmi (oshxonasi) bilan mashhur va an'anaviy taomlarni yoqtiruvchi

turistlarni o'ziga jalb qiladi. Mahalliy aholi quritilgan meva etishtirish, asalarichilik bilan shug'ullanib, o'rik, tut va yong'oq, sut mahsulotlari etishtirib, sayyohlarga sotmoqda. Qishloqda keksa avloddan yoshlarga ularning mahoratini puxta o'rgatib, ustaxonalar rekonstruksiya qilinmoqda. Hunarmandlar qo'y junidan zamonaviy anjomlar – murakkab bezatilgan kiyim-kechak, to'shak va gilamchalar tayyorlaydilar. Qishloqqa kelgan sayyohlar mehmonxona va mehmon uylarida qolib, shu hududda ishlab chiqarilgan qo'lda yasalgan buyumlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Nurota muqaddas bulog'i (Chashma) - viloyatning yirik turistik ob'ektlaridan biri. Nurota shahri tarixiy-madaniy turistik markaz hisoblanib, shahar va muqaddas buloq haqidagi dastlabki ma'lumotlarni Muhammad Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida keltirib o'tadi. «Nur katta joy, unda masjidi jome' bor; U ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u erga boradilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishining fazilatiga ega bo'ladi, u erni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro deb ataydilar, tobeinlardan ko'p kishilar u erga dafn etilganlar».

Muhim turistik yo'nalishlardan biri Nurota shahridagi muqaddas Chashma (buloq) hisoblanib, ushbu buloq O'zbekistondagi eng muqaddas suv manbalaridan biri hisoblanadi. Undan bir sekundda 360 - 400 litr sig'imdagi suv otilib chiqib turadi. Qishin-yozin suv haroratining bir xilda +19,5o S bo'lishi, suvning tarkibida etti xildagi shifobaxsh mikroelementlarning mavjudligi hamda aholi qadimdan muqaddas sanab keluvchi baliqlari bilan e'tiborga molikdir. Tog' etagidagi mana shu buloqdan har kuni tong saharda quyoshning zarrin nurlari ta'sirida o'ziga xos yorug'lik (nur) hosil bo'lishi va tovlanishi sababli unga nisbatan Nur atamasining ishlatilishi bejiz emas.

Muqaddas buloq mintaqadagi islom markazlaridan biri bo'lgan va bugun Markaziy Osiyo va xorijdan musulmonlar hamda turistlar tashrif buyuradigan maskan sifatida mashhur. Mazkur muqaddas buloqdan oqib o'tuvchi shifobaxsh suv noyob suv kanali tizimi orqali yuzlab xonadonlari suv bilan ta'minlaydi. Nurota muqaddas bulog'i atrofida bepoyon Qizilqum cho'li va boy flora va faunaga ega Aydarko'l joylashanligi madaniy, ekoturizm uchun keng imkoniyatlar maskanidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida turizmga e'tibor qaratilayotgani hududning zarur ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish, mazkur hududning mamlakatning turizm salohiyatidagi o'zni o'ziga xos ekanligini tasdiqladi. Bular quyidagi omillar bilan izohlandi:

Birinchidan, hududda turizm sohasi va industriyasini rivojlantirish mazkur hududning iqtisodiy holati va geografik joylashuvi, tabiiy-iqlim omillari va mehnat resurslarining yetarlicha ekanligi bilan asoslandi;

Ikkinchidan, mintaqada tarixi-madaniy turizm rivojlanishi uchun tarixiy yodgorliklar, madaniy-maishiy ob'ektlar, tabiiy-geografik turistik manzillar yetarli ekanligi, ammo ushbu sohada ayrim muammolarni hal qilish vazifalari mavjudligi tasdiqlandi;

Uchinchidan, mahalliy va xorijiy amaliyotga ko'ra turistik resurslarni baholashda turizm resurslari holatini tavsiflash muhim ahamiyat kasb etishi, Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlari o'zining tarixi-madaniy, rekreatsion, ziyorat, ekoturizm imkoniyatlari bilan ajralib turishini ko'rstadi.

ADABIYOTLAR

1. Мусаев Б. Абдимуродова М, Маркаева С. Жиззах вилояти шаҳарларининг ривожланишида туризмнинг роли. // "Экономика и социум" №6(85) ч.2 2021.
2. Нурота тоғи / Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 2003. Т. 6. – Б. 420.
3. Тошкентбоев А. Жиззах вилояти. – Жиззах, 1994. – Б. 6-7.
4. Исмоилзода Шавкат. Судур бобо ёхуд Нурато тарихидан саҳифалар. – Т., 2005. – Б. 80.
5. Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-ҳудудий тузилиши. – Т., 1996. – Б. 48-56.
6. Исмоилзода Шавкат. Судур бобо ёхуд Нурато тарихидан саҳифалар ... – Б. 80.
7. Мардонов Б. Б. Сфера обслуживания и занятость. Монография Т-2013
8. Усманов М. Географические аспекты организации туризма в Джизакской области. // Экономика и социум. №1 (104) -2. 2023.
9. Орифжонов Ш. Туристско-рекреационный потенциал и региональные особенности развития туризма в Узбекистане. // Journal of universal. Science of research. ISSN (E) 2181-4570.
10. Tolipov F., Yunusova X, Nematov O. Historical and ethnographic features of the uzbek kurash // International journal of regent technology and ingenering- volume-8. issue 2- 3. iuly. 2019.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Зомин» туристик-рекреацион зонасини ва халқаро умуммавсумий курортни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 07.04.2021 й., 06/21/6201/0302-сон
12. Абу Бакр Мухаммад Ибн Жаъфар ан-Наршахий. Бухоро тарихи / Форс тилидан А. Расулев таржимаси. – Т., 1993. – Б. 52.
13. Толипов Ф. Нурота воҳаси аҳолиси турмуш тарзида жамоа анъналари (XIX аср охири – XX аср биринчи ярми). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. Т. 2006. –Б. 37.
14. Тўйчибоев Б. Қоятош ёдгорликларни сақлаш ва фойдаланиш масалалари ҳусусида. // Ўтмишга назар. №1. 2023.



Naim OBLUMURADOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, tarix fanlari doktori

Gertsen nomidagi Moskva davlat pedagogika universitetining dotsenti, t.f.d. V.Eshquvatov taqrizi asosida

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHINI MEXANIZATSIYALASH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Аннотация

Maqolada SSSR davrida O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini mexanizatsiyalash, sohasidagi yutuqlar, muammolar va echimlar masalasi yoritilgan. Unda 1971-1999 yillarda O'zbekiston agrar tarixi muammolarini o'rganishning asosiy yo'nalishlari, erishilgan yutuqlar va dolzarb masalalar tahlil etilgan. Maqolada o'rganilayotgan davrda O'zbekiston agrar siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri qishloq xo'jaligining moddiy-texnika salohiyatini mustahkamlash, uni sanoat bazasiga o'tkazish, qishloq xo'jaligi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalash hamda paxta ekish va qayta ishlashning progressiv usullarini joriy etish retrospektiv metod orqali tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Monopartiya mafkurasi, ishchi-dehqonlar sinfi, paxta yakkahokimligi, Sovet davri, agrar siyosat, mashina-tractor parki, kompleks mexanizatsiyalash dasturi, qayta qurish siyosati.

ПРАКТИКА МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В статье описана механизация сельскохозяйственного производства в Узбекистане в период СССР, ее достижения, проблемы и пути их решения. Анализируются основные направления изучения проблем аграрной политики советской власти в Узбекистане в 1971-1999 годах, достигнутые достижения и проблемы. Одним из стратегических направлений аграрной политики Узбекистана в исследуемый период является укрепление материально-технического потенциала сельского хозяйства, перевод его на промышленную основу, ретроспективно проанализированы механизация процессов сельскохозяйственного труда, внедрение прогрессивных методов посева и переработки хлопка.

Ключевые слова: Монопартийная идеология, рабочий класс крестьян, хлопковая монополия, советская эпоха, аграрная политика, машинно-тракторный парк, программа комплексной механизации, политика реструктуризации.

PRACTICE OF MECHANIZATION OF AGRICULTURAL PRODUCTION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Annotation

The article describes the mechanization of agricultural production in Uzbekistan during the USSR period, its achievements, problems and ways to solve them. The main directions of studying the problems of agricultural policy of the Soviet regime in Uzbekistan in 1971-1999, the achievements and problems achieved are analyzed. One of the strategic directions of the agricultural policy of Uzbekistan during the period under study is the strengthening of the material and technical potential of agriculture, its transfer to an industrial basis, the mechanization of agricultural labor processes, the introduction of progressive methods of sowing and processing cotton were retrospectively analyzed.

Key words: Mono-party ideology, working class peasants, cotton monopoly, Soviet era, agricultural policy, machine and tractor fleet, comprehensive mechanization program, restructuring policy.

Kirish. O'zbekiston agrar tarixi muammolarini o'rganish va yoritish o'zbek dehqonlarining bunyodkorlik salohiyatini faollashtirishda katta ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega.

Qishloq mehnatkashlari O'zbekistondagi eng yirik ijtimoiy guruhlardan biridir. Respublikada samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini shakllantirish, iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish, ijtimoiy-siyosiy iqlimni yaxshilash muammolarini muvaffaqiyatli hal etish ko'p jihatdan ularning sa'y-harakatlariga bog'liq. Shu bilan birga, o'rganilayotgan davrda dehqonlarning rolini baholashda noto'g'ri uslubiy yondashuv yaqqol hukmronlik qilgan. Maqolaning xronologik doirasi 1971-1990 yillarni qamrab oladi. Bu davr maishiy, xususan, agrar tarixning asosiy bosqichlari orasida alohida o'rin tutadi. Uning o'ziga xosligi turg'unlik va islohotchilik jarayonlarining chambarchas aloqadorligi bilan bog'liqdir. Voqealar, faktlar, asosiy tendensiyalarning retrospektiv tahlili ushbu davrning agrar sohasi, bir tomondan, bir necha o'n yilliklar davomida olib borilgan qishloq xo'jaligi siyosatining nuqsonlarini chuqur tushunishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, amalga oshirilgan «qayta qurish» nima uchun o'z-

o'zidan yuzaga kelganini, butunlay noizchil kechganini, nima uchun taraqqiyot o'rniga respublika qishloq xo'jaligi butun SSSRda bo'lgani kabi inqirozli vaziyatga tushib qolganini tushunishga imkon beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolada sovet davrida qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq turdosh sohalarda taraqqiyoti, ushbu yo'nalishdagi muammolar, ayniqsa qishloq xo'jaligida kollektivlashtirish tendensiyalari, qishloq xo'jaligi sanoati bilan bog'liq bo'lgan sohalaridagi ziddiyatlar masalasi A. Aminova tadqiqotlarida o'z aksini topgan bo'lib, muallif o'z ishlarida ushbu muammolar echimi borasida sovet hukumatining olib borgan paxta yakkahokimligi, kimyolashtirishdagi muammolar masalalariga e'tiborni qaratadi. Tadqiqotchi A. Golovanov esa o'rganilayotgan davrda o'zbek dehqonlarining sotsializm qurishdagi ishtiroki, ularning ijtimoiy ahvoli, aholi turmush tarzini yaxshilash, ularni xom ashyo va tayyor maxsulotlar bilan ta'minlashda o'zbek dehqonlar qatlamining rolini tavsiflaydi.

O'zbekiston Kommunistik partiyasi plenumlarida belgilab berilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari ham maqolaning manbaviy asosini boyitishga xizmat qildi. Bu

borada partiya ideallari va ko'rsatmalarini og'ishmay amallga oshirishdagi jonbozlik masalalari rivojlangan sotsializm qurilishiga asos bo'lganligi ta'kidlanadi. Shuningdek maqolada "O'zbekiston kommunisti" jurnali sahifalarida yoritilgan maqolalardan ham foydalanildi. Unda O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi yutuqlari va amalga oshirilgan yutuqlar va muammolar tahliliy maqolalar sifatida yoritib borilgan. Ayniqsa rivojlangan sotsializm qurish yo'lida o'sha paytdagi hukmron partiya belgilab bergan ustuvor ko'rsatmalarga oid ma'lumotlar "Statistik yilnoma" sahifalaridan o'rin olganligini ta'kidlash o'rinlidir. XX asr 60-70 yillarida ommaviy ravishda chop etilgan "Pratiya hayoti" jurnali sahifalarida ham qishloq xo'jaligi sohasini mexanizatsiyalashga o'tkazish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar, yutuqlar, ziddiyatlar va muammolar tahlil etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola tarix va boshqa ijtimoiy -gumanitar fanlarda qabul qilingan qiyosiy tahlil, ob'ektivlik, tarixiy ketma-ketlik, izchillik, qiyosiy taqqoslash tamoyillari asosida yoritildi. Tadqiqot materiallari ko'rsatadiki, 60-yillar va 80-yillarning boshlarida qishloq xo'jaligida ilmiy-texnikaviy siyosatning asosiy tamoyillari va qoidalari kommunistik partiya qurultoylarida ishlab chiqilgan normalar asosida olib borilganligiga ob'ektiv qarash, maqolada ob'ektivlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etishini ta'kidlash o'rinli.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoroning etnik-madaniy merosini asrab-avaylash va targ'ib qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Buxoroning yetita tarixiy obidasining ICESCO ro'yxatiga kiritilgani mintaqaning o'z madaniy merosini asrab-avaylash va uning tarixiy ahamiyatini xalqaro miqyosda tan olishga intilishidan dalolatdir. Buxoro viloyatining etnik-madaniy merosi mintaqaning rang-barang madaniy ta'siri va bardavom merosini o'zida aks ettiruvchi tarix, an'ana va san'at xazinasidir. O'zining me'moriy mo'jizalari, an'anaviy hunarmandchiligi, bayramlari va bayramlari orqali Buxoro o'zining boy madaniy merosi va o'ziga xosligini saqlab qolishda davom etib, Markaziy Osiyoning markazida madaniy xilma-xillik va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan mayoq bo'lib xizmat qilmoqda. Buxoro o'zining etnik-madaniy merosini asrab-avaylash, targ'ib qilish va ulug'lash orqali uning betakror merosi avlodlar o'rtasida saqlanib qolishini ta'minlaydi, aholi hayotini boyitadi va dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarning hayollarini o'ziga tortadi[4].

Buxoro viloyatining etnik-madaniy merosi milliy shirinliklar tarixi haqida ajoyib tasavvurga ega bo'lib, mintaqaning boy oshpazlik an'analari, madaniy ta'sirlari va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Turli millatlar va dinlarning erish qozoni sifatida Buxoro asrlar davomida savdo va madaniy almashinuv markazi bo'lib kelgan, bu mintaqaning an'anaviy shirinliklarini belgilaydigan noyob lazzatlar va ingredientlarning evolyutsiyasi va sinteziga olib keldi. Buxoro viloyatidagi milliy shirinliklar tarixi viloyat tarixi va madaniy merosi bilan chuqur bog'langan. Shirin taomlar asrlar davomida Buxoro pazandachilik an'analari ajralmas qismi bo'lib kelgan, retseptlar avlodlardan avlodga o'tib kelgan va vaqt o'tishi bilan mintaqani shakllantirgan turli madaniyatlar ta'sirini o'zida aks ettirgan. Buxoro shirinliklari asaldan tayyorlangan oddiy qandolatlardan tortib murakkab qandolat va shirinliklarga qadar mintaqada pazandachilik manzarasida o'chmas iz qoldirgan savdo-sotiq, an'ana va madaniy almashinuv haqida hikoya qiladi. Buxoro viloyatining etnik-madaniy merosi turli etnik guruhlarining mozaikasi bo'lib, ularning har biri o'ziga xos pazandalik an'analari va mahalliy oshxonaga o'ziga xos afzalliklarga ega. Mintaqaning shirinliklari o'zbek, tojik, fors, yahudiy va rus oshpazlik an'analari ingredientlari, texnikasi va lazzatlarini o'z ichiga olgan ushbu madaniy xilma-xillikning aksidir. Misol uchun, Buxoro shirinliklarida Fors oshxonasiga xos bo'lgan yong'oq va quritilgan mevalar, shuningdek, Markaziy Osiyo shirinliklarida keng qo'llaniladigan kardamon va doljin kabi ziravorlar bo'lishi mumkin[3].

1-Jadval

Buxoro viloyatining milliy shirinliklari O'zbekiston etnik-madaniy merosida muhim o'rin tutadi. Ushbu an'anaviy shirinliklar tarixi mintaqaning boy madaniy va oshpazlik an'analari bilan chambarchas bog'liq. Buxoro viloyatidagi etnik-madaniy meros milliy shirinliklari tarixini tahlil qilamiz:

1. Tarixiy ahamiyati: Buxoroning an'anaviy shirinliklari asriy retseptlar va pishirish texnikasi saqlanib qolgan holda avlodlarga o'tib kelmoqda. Ushbu shirinliklar

ko'pincha ramziy ma'noga ega va mintaqadagi madaniy bayramlar, marosimlar va ijtimoiy yig'ilishlar bilan chambarchas bog'liq.

2. Pazandachilik ta'siri: Buxoroning milliy shirinliklari O'rta Osiyo, fors, turk va rus oshpazlik ta'sirini o'zida aks ettiradi. Asrlar davomida Buxoro orqali o'tuvchi savdo yo'llari mintaqaga yangi ingredientlar va ta'mlarni olib kelib, mahalliy oshxonani boyitib, o'ziga xos shirin delikateslarni keltirib chiqardi.

3. Tarkibi va tayyorlanishi: Buxoroning an'anaviy shirinliklari odatda yong'oq, quritilgan mevalar, asal, shakar va kardamon va za'faron kabi xushbo'y ziravorlar kabi mahalliy ingredientlardan tayyorlanadi. Tayyorlash usullari ko'pincha mukammal tuzilish va ta'mga erishish uchun xamirni shakllantirish, qandolat choyshablarini qatlamlash va siroplarni qaynatish kabi murakkab qo'lda ishlov berishni o'z ichiga oladi.

4. Ramza va marosimlar: Milliy shirinliklar Buxoro madaniyatida mehmondo'stlik, saxovatpeshalik, bayram tantanalarini ifodalovchi muhim o'rin tutadi. Bu shirinliklar ko'pincha to'ylarda, diniy bayramlarda, oilaviy yig'inlarda yaxshi niyat va farovonlik belgisi sifatida tayyorlanadi va xizmat qiladi.

5. Merosni asrab-avaylash: Buxoro viloyatida an'anaviy shirinliklarning ommaviyligi va ishlab chiqarilishi davom etayotgani etnik-madaniy merosning mustahkamligidan dalolat beradi. Mahalliy qandolatchilar va oilalar bu asriy retseptlarni asrab-avaylash, buxorolik shirinliklar merosini kelajak avlodlarga yetkazishdan faxrlanadi.

Tahlil va natijalar. Buxoro viloyatida milliy shirinliklarning an'anaviy retseptlari mahalliy qandolatchilar va uy oshpazlarining mahorati va tajribasini aks ettiruvchi pazandachilik bilimlari va madaniy meros ombori hisoblanadi.

1. Holva: maydalangan kungaboqar urug'lari, shakar va yong'oqlardan tayyorlanadigan, ko'pincha kardamon yoki za'faron bilan ta'mlangan shirin qandolat.

2. Naxvat: yong'oq, asal va quritilgan mevalardan kichik kvadratchalar yoki barlar shaklida tayyorlangan nugat turi.

3. Paxlava: ko'p qavatli xamir, sariyog', shakar va yong'oqlardan tayyorlanadigan, odatda maxsus bayramlar va bayramlarda xizmat qiladi.

4. Navot: maxsus tantanalar va to'ylarda qo'llaniladigan, murakkab dizayn va hunarmandchilikni namoyish qiluvchi shakar asosidagi dekorativ qandolat mahsulotlari.

Buxoro viloyatida milliy shirinliklar nafaqat mazali taom, balki turli marosim va bayramlarda madaniy va ramziy ahamiyatga ega. Shirinliklar ko'pincha to'ylar, tug'ilishlar va diniy bayramlar kabi maxsus tadbirlarni nishonlash uchun ishlatiladi, bu farovonlik, mehmondo'stlik va omadni anglatadi. Shirinliklarni taqdim etish va baham ko'rish Buxoro ijtimoiy urf-odatlarining ajralmas qismi bo'lib, jamiyatda aloqalarni o'rnatadi va munosabatlarni mustahkamlaydi. Buxoro viloyatida milliy shirinliklar tarixini uning etnik-madaniy merosi sifatida asrab-avaylash va targ'ib etish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. An'anaviy retseptlar va texnikani namoyish qilish uchun pazandachilik festivallari, taom sayohatlari va pazandachilik kurslari tashkil etilib, mahalliy aholi va mehmonlarga Buxoro shirinliklari ortidagi lazzatlar va hikoyalarning boy gobenini his qilish imkonini beradi. Ushbu pazandachilik an'analari hujjatlashtirish va baham ko'rish orqali Buxoro o'zining milliy shirinliklari tarixini avlodlar o'rtasida tarannum etishini va zavqlanishini kafolatlaydi. Buxoro viloyatidagi milliy shirinliklar tarixi mintaqaning oshpazlik merosini belgilab beruvchi xilma-xil ta'sir va o'ziga xos lazzatlarni aks

ettiruvchi madaniy almashinuv, an'analar va innovatsiyalarning mazali hikoyasi bo'lib xizmat qiladi. Buxoro viloyati o'zining an'anaviy retseptlari, madaniy ta'sirlari, ramziyligi va saqlash harakatlari orqali milliy shirinliklar jamiyatning etnik-madaniy o'ziga xosligi va tarixiy merosining mohiyatini o'zida mujassamlashtirib, har bir luqmada tarix ta'mini taqdim etishini namuna qilib ko'rsatadi.[2]

Buxoro viloyatidagi milliy shirinliklar tarixi turli madaniyatlar, an'analar va ta'sirlarning uyg'unligini aks ettiruvchi vaqt bo'ylab shirin sayohatdir. Asal qo'shilgan noz-ne'matlarning soddaligidan tortib, puxta ishlab chiqarilgan qandolat mahsulotlarigacha bo'lgan har bir shirin taom o'zi bilan mintaqaning o'tmishi haqida hikoya qiluvchi hikoyani o'z ichiga oladi. Buxoroning etnik-madaniy merosi asrlar davomida uning shirinliklarini shakllantirgan xilma-xil oshpazlik ta'sirining uyg'unligidan dalolat beradi. Mintaqaning Fors, Rossiya va Turkiya kabi qo'shni mintaqalar bilan savdo va madaniy almashinuv tarixi uning shirinliklariga boy ta'mlar, ingredientlar va texnikalar bilan ta'minlangan. Yong'oqlar, quritilgan mevalar, ziravorlar va gul mohiyati bir-biriga mukammal uyg'unlikda aralashib, ularni yaratgan odamlar kabi turli xil qandolatlarni yaratadi. Buxoro viloyatida milliy shirinliklar tayyorlashning an'anaviy retseptlari viloyat madaniy merosining jonli dalilidir. Avlodlar orqali o'tib kelayotgan bu retseptlar an'analarga botib ketgan va vaqt o'tishi bilan ularni takomillashtirgan uy oshpazlari va qandolatchilarning sevgisi va g'amxo'rliqi bilan sug'orilgan. Yong'oq qo'shilgan holvami, asal qo'shilgan naxvatmi yoki paxlavaning yog' qatlamlarimi, har bir shirin taom o'lka tarixi, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi. Buxoro viloyatidagi

milliy shirinliklar shunchaki shirinlik emas; ular bayram, mehmondo'stlik va jamoaning ramzidir. To'y-hashamlardan diniy bayramlargacha bo'lgan shirinliklar Buxoroning ijtimoiy udumlarida asosiy o'rin tutib, farovonlik, shodlik va hamjihatlik ramzi hisoblanadi. Shirinliklarni baham ko'rish xayrixohlik ishorasi va boshqalar bilan aloqa o'rnatish usuli bo'lib, oziq-ovqatning nafaqat oziq-ovqat, balki madaniy tayanch tosh sifatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Buxoro viloyatida milliy shirinliklar tarixini asrab-avaylash va targ'ib etish borasidagi sa'y-harakatlar uning etnik-madaniy merosini kelajak avlodlar uchun asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy retseptlar va usullarni namoyish etishga qaratilgan pazandachilik festivallari, mahorat darslari va o'quv dasturlari Buxoro pazandalik an'alarining boyligini tarannum etish uchun maydon bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu shirin an'analarni hujjatlashtirish, baham ko'rish va o'tkazish orqali mintaqada o'zining milliy shirinliklari tarixini uzoq yillar davomida qadrlashini va zavqlanishini ta'minlaydi[1].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Buxoro viloyatining etnik-madaniy merosi o'zining milliy shirinliklari tarixida yorqin namoyon bo'lib, mintaqaning o'tmishi, buguni va kelajagiga hayratlanarli tasavvur beradi. Turli pazandalik ta'sirlarining uyg'unligidan tortib, ijtimoiy marosimlarda shirin taomlarning ramziy ma'nosigacha, Buxoro shirinliklari taomga, an'anaga va hamjihatlikka bo'lgan umumiy muhabbat bilan birlashgan jamoa ruhini o'zida mujassam etgan. Milliy shirinliklar ob'ektivi orqali biz nafaqat lazzatlar tarixini, balki bugungi kungacha Buxoro viloyatini belgilab beruvchi va boyitib kelayotgan madaniyat, o'ziga xoslik va chidamlilik tarixini kashf etamiz.

ADABIYOTLAR

1. Г.Н. Крусь. Технология молока и молочных продуктов. Учебник. Москва «КолосС», 2007.[1]
2. Ismoilov T.A. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, TKTI bosmaxonasi, 2013. - 300 b.[2]
3. Dodaev Q.O. Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi. Darslik. T.:Noshir, 2009.387 b.[3]
4. Choriev A.J., Dodaev Q.O. Oziqovqat korxonalarini jihozlari. Darslik. Toshkent «O'zbekiston» NMIU, 2010. -192 b.[4]
5. Ismoilov T.A., Fatxullaev A., Raximjonov M.A., Muxitdinova M.U. Go'sht -sut biokimyosi. Darslik. Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti, 2014. - 256 b.[5]
6. Food safety handbook. Ronald H. Schmidt and Gary E.Rodrick.2003 by Ajohn wiley&sons publication. Page 805.[6]



UDK: 94:007(575.1)“1991/2020”(043)

Izzat YUSUPOV,

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari, Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, t.f.f.d, dotsent
E-mail: izzattauf@gmail.com

Urganch davlat universiteti professori t.f.f.d. Q. Masharipov taqrizi asosida

HISTORY OF DEVELOPMENT OF MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF LOCAL TV CHANNELS IN UZBEKISTAN IN 1991-2020

Annotation

In this article, in addition to the work carried out on the creation of regional television channels operating in our country in 1991-2020, daily programs, broadcast hours, diversity, relevance, coverage of TV program topics, as well as improvement, the material and technical base, modern equipment are used in promoting regional TV channels to a new level, in addition, the direct work of journalists and technical specialists working on the ground was excellent. From a chronological point of view, a new stage in the development of these media as a means of education and recreation for the population is highlighted.

Key words: Uzbekistan, youth, television cameras, video equipment, Panasonic-70, radio and television center, cimenc bfe, sonny betkam sp, siemens.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ МЕСТНЫХ ТЕЛЕКАНАЛОВ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1991-2020 ГГ

Аннотация

В данной статье, помимо проведенной работы по созданию региональных телеканалов, работающих в нашей стране в 1991-2020 гг., ежедневные программы, часы вещания, разнообразие, актуальность, освещение тем телепрограмм, а также совершенствование используется материально-техническая база, современное оборудование при продвижении региональных телеканалов на новый уровень, кроме того, была великолепна непосредственная работа журналистов и технических специалистов, работающих на местах. С хронологической точки зрения освещен новый этап развития этих средств массовой информации как средства обучения и отдыха населения.

Ключевые слова: Узбекистан, молодежь, телекамеры, видеотехника, Panasonic-70, радио и телецентр, cimenc bfe, sonny betkam sp, siemens.

1991-2020-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA HUDUDIY TELEKANALLARNING MODDIY TEXNIK BAZASINI RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada 1991-2020-yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan hududiy telekanallarni tashkil qilinishi, kundalik dasturlarni, efirga uzatish soatlari, teledastur mavzularining rang-barangligi, dolzarbligi, qamrovi hamda moddiy texnik bazani yaxshilash borasida olib borilgan ishlar bilan bir qatorda hududiy televideniylarning yangi bosqichga ko'tarilishida zamonaviy jihozlar bilan bir qatorda sohada faoliyat olib borayotgan jurnalist va texnik xodimlarning bevosita xizmati katta bo'lgandi. Aholini tarbiyalash va dam olish vositasi sifatida mazkur axborot vositalarining yangi taraqqiyot bosqichi xronologik jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, yoshlar, telekameralar, videouskunalar, panasonic-70, radioteleuzatish markazi, cimenc bfe, sonny betkam sp, siemens.

Kirish. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida hududiy televideniylar tizimida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sohaga doir yangi infratuzilmalar yaratildi. Bunday yangilanishlar hududiy televideniye tizimining yangi bosqichga ko'tarilishini va rivojlanish jarayonlarini aholining ijtimoiy-madaniy hayotidagi tutgan o'rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan hududiy televideniylarni olib borayotgan faoliyati, ularning moddiy-texnik holati, kadrlarni tayyorlash bilan qamrab olinishi jarayoni tizimli ravishda o'rganilmagan. Bunday yangilanishlar hududiy televideniylarning rivojlanish jarayonini va aholini ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rnini alohida mavzu doirasida tadqiq etishni taqozo etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida mavzu doirasida O.O'tayev, M.Alimardanov, A.Mo'minov, M.Masharipov, kitoblarida ma'lumotlar aks ettirilgan bo'lsada, yetarli o'rin ajratilmagan. O'zbekistonda

nashr qilingan monografiya va yoqlangan dissertatsiya ishlari hamda davlat arxivlari fondlarini ko'zdan kechirish jarayonida, hududiy televideniye sohasiga oid ma'lumotlar juda kam o'rganilganligi va tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib ketayotganini ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan bir qatorda mazunning o'rganilish darajasi tahlili O'zbekiston nuqtai nazaridan hozirga qadar yaxlit tarzda jamlab o'rganilmaganidan dalolat beradi va bu tarix fanida o'z yechimini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimiz istiqloлга erishganidan keyin barcha sohalar kabi televideniye sohasida ham tub islohotlar boshlandi, moddiy-texnik bazasi ham mustahkamlana boshlandi. Bu borada bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining hududiy telekanallari ko'rsatuv va eshittirishlari bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar axborot makonida salmoqli o'rin egallagan ommaviy axborot vositalaridan biri hisoblanadi. Hududiy

telekanallar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, MTRKning me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatadi [1].

1991-yildan Samarqand viloyat televideniyesi ko'rsatuvlari haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari bir soatdan dastlab "O'zbekiston", keyin "Yoshlar" telekanallari to'loqida efirga chiqa boshlagan. 1991-yil 25-oktabrdan Andijon televideniyesini ko'rsatuvlari efirga uzatila boshlangan. Dastlab haftasiga bir soat, keyinchalik haftada ikki marotaba bir yarim soatlik teledastur efirga uzatilgan. Shu yili Namangan televideniyesining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ijodkorlar uchun qulay sharoitlar yaratildi, turkum ko'rsatuvlar tashkil etilgan [2].

1991-yil dekabr oyida Farg'ona viloyat televideniyesiga zamonaviy telekameralar, videokunalar keltirildi. Teleko'rsatuvlarni tayyorlashda "2 ta Panasonic-70" videokameralar va shu nomdagi videomagnitofonidan foydalanilgan. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayoti aks etgan birinchi teleko'rsatuv 1991-yilning 22-dekabrda efirga uzatilgan. Zamonaviy telestudiya foydalanishga topshirilgunga qadar radiostudiyada ko'rsatuvlar tasvirga tushirilgan. 1992-yili Samarqand viloyat televideniyesi 28 DMV kanali orqali efirga uzatila boshlandi. 1994-yil 13-martdan Buxoro televideniyesi o'z ko'rsatuvlarini efirga muntazam uzata boshladi. Dastlab ko'rsatuvlar haftada uch marta, jami 1 soatu 10 daqiqa hajmda namoyish qilingan [3].

1995-yil 23-yanvarda Qashqadaryo viloyat televideniyesini tashkil etish to'g'risida farmoyish qabul qilingan. Mana shu hujjatga asosan Qashqadaryo televideniyesi tashkil etilib, unga 200 ming AQSH dollaridan ortiq mablag' evaziga xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar, ikki dona "Sonny Betkam SP" telekamera hamda ikki jamlanma oddiy chiziqli montaj stoli keltirilib o'rnatilgan. 1995-yil 24-avgust kuni soat 17.00 da ilk sinov ko'rsatuv efirga uzatildi. 1996-yilning oxirida Samarqand teleradiokompaniyasi Ozod Sharq ko'chasi 4-uyga ko'chirilishi natijasida viloyat radio va televideniyesi bir joyda faoliyat ko'rsata boshladi [4]. Mustaqillik yillarida televizion uzatish tarmog'i faol rivojlandi. Hatto televizion to'loqlar uzatish o'ta murakkab bo'lgan Farg'ona viloyatining So'x va Namangan viloyatining chekka Zarkent tumanlarida ham bemalol televizor tomosha qilish imkoniyati yaratildi. 1998-yili Farg'ona viloyatida yangi stansiya qurildi [5].

1999-yilning 1-dekabrda Farg'ona viloyati So'x tumani aholisining talab va istaklarini hisobga olib, muxlislarni tezkor axborotlar bilan ta'minlash hamda teleradioeshittirishlarni yanada rivojlantirish maqsadida viloyat teleradiokompaniyasi tarkibida So'x tumanida ko'rsatuvlar olib boruvchi tahririyat tashkil etildi. 2005-yilda So'x tumanidagi stansiyada yangi apparat zali qurilib, unga Yaponiyaning NEC firmasida ishlab chiqilgan kam quvvatli teleuzatgich o'rnatildi va "O'zbekiston" kanalining birinchi dasturi tarqatila boshlandi. Andijonning Beshbosh adirligida joylashgan stansiyada ham ikkita shunday teleuzatgich o'rnatilib, vodiy bo'ylab uzatish yo'lga qo'yildi.

2000-yilda Namangan viloyati televideniyesi viloyat teleradiokompaniyasi uchun qariyb 504 mln. 15 ming so'm mablag' evaziga yangi telemarkaz qurib bitkazildi. Zamonaviy televideniye studiyalari barcha sharoit va qulayliklarga ega bo'lib, o'sha davrning eng so'nggi rsumdagi apparatlar o'rnatildi [6]. 2000-yilning 1-fevralidan Navoiy viloyati televideniyesi tashkil qilindi. Dastlabki davrda haftasiga 2 soatdan ko'rsatuvlar efirga berib kelingan. Teledasturlar yozib olinib, Navoiy RTUM (radioteleuzatish markazi)dan DVD pleyerlar yordamida efirga tarqatilgan [7]. 2001-yilda

mamlakatimizda qirqa yaqin mahalliy (viloyat va tuman) xususiy nohukumat tele va radiokompaniyalari faoliyat ko'rsatgandi [8].

2001-yilning 27-dekabrda Qashqadaryo teleradiokompaniyasining yangi binosi qurib bitkazildi va viloyat telemarkazi ochildi. 2002-yilda bir dona "Sonny Betkam SP" telekamera hamda bir jamlanma "Sonny Betkam SP" oddiy chiziqli montaj stoli olib kelindi. 2003-yilda Qashqadaryo viloyati teleradiokompaniyasiga "Cimenc Bfe" firmasi Germaniyaning uch kamerali studiya jihozlari o'rnatildi. Natijada viloyat televideniyesining efir soatlari 6 soatga uzayib, dushanbadan tashqari har kuni efirga chiqish imkoniyati vujudga keldi.

2005-yil sentabr oyiga qadar Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasi o'zining doimiy binosiga ega bo'lmagan. Sirdaryo viloyati hokimining 2005-yil 22-avgustdagi 137-sonli qarori bilan Guliston shahrida televideniye uchun bino ajratildi. 2007-yilda Qashqadaryo televideniyesining efir soati 8 soatga uzaydi. 2008-yilning aprel oyidan viloyat televideniyesining teleko'rsatuvlari alohida kanal orqali namoyish etilishi natijasida efir soatlari yanada kengaytirildi. 2007-yildan Buxoro viloyati teleradiokompaniyasi kuniga 16 soat hajmda teleko'rsatuvlarni efirga berishni yo'lga qo'ydi [9].

2009-yilda Xorazm teleradiokompaniyasini Germaniyaning "Simens" firmasi televizion uskunalarini bilan qayta jihozlash ishlari yakunlandi. Xorazm televideniyesi shu yildan mustaqil kanalga, alohida 1 kilovattlik teleuzatgichga ega bo'ldi va kuniga 1 soat 20 daqiqalik efindan, 16 soatlik ko'rsatuvlarni chiqarishga erishdi. Ko'rsatuvlar nafaqat hajm jihatdan, balki mazmun va mavzu jihatidan ham kengayib, yuqori texnik sifatga ega bo'ldi [10]. 2008-yilning 1-yanvardan alohida to'loqida Surxondaryo viloyati televideniyesining viloyat bo'yicha tele efir berish yo'lga qo'yildi [11].

2011-yilda Nukus RTSGa 50-60 km. radiusdagi hududni qamrab oluvchi 2,0 kvv vatga ega Germaniyaning Rodhe&Schwarz kompaniyasi raqamli teleuzatgichi (DVB-T standarti) o'rnatildi. Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining 34 foizdan ortig'i raqamli televideniye signallari bilan qamrab olindi. 2013-yil may oyidan boshlab mahalliy "Qoraqalpog'iston" telekanali raqamli formatda efirga uzatila boshlandi [12].

2013-yil 22-maydan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining ko'rsatuvlari raqamli tizim orqali efirga uzatilgan. Samarqand viloyatining ma'muriy markazi – Ko'ksaroy maydonida viloyat teleradiokompaniyasi uchun 4 qavatdan iborat bino qayta ta'mirlanib, tele va radioapparatxonalarini joylashtirildi va barcha talablarga javob beradigan zamonaviy yangi telestudiya barpo etildi hamda 2015-yil viloyat teleradiokompaniyasi ushbu zamonaviy binoga ko'chib o'tdi [13].

2013-yil 20-apreldan Xorazm televideniyesi dasturlari analog format bilan bir vaqtda raqamli formatda efirga tarqatila boshlandi. Efir sifati keskin yaxshilanib, qamrovi kengaydi. Yangi zamonaviy videokameralar sotib olindi va ichki imkoniyatlar hisobiga kichik ko'chma televizion stansiya (mini KTS) ishga tushirildi. Xorazm telekanali tomoshabinlar sevib tomosha qiladigan telekanalga aylandi. 2014-yildan boshlab viloyat televideniyesi ko'rsatuvlarini "Diyor" telekanali orqali butun mamlakat aholisi tomosha qiladigan bo'ldi [14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016-yil 11-noyabr kuni Shovot tumanida Xorazm viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuvda: "Biz bugun axborot va globalashuv davrida yashayapmiz. Biz istaymizmi, yo'qmi, yurtimizga turli ko'rinishdagi axborot xurujlari bo'lishi tabiiy. Ana shunday xurujlarga qarshi

aholida, ayniqsa, yoshlarda immunitetni mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarimiz, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashda televideniye va radioning o'rni beqiyosdir. Afsuski, Toshkentdagi respublika televideniyesidan keyin ikkinchi bo'lib respublikamizda ish faoliyatini boshlagan Xorazm viloyati televideniyesi binosi o'tgan asrning 60-yillarida hashar yo'li bilan qurilgan. Bu bino bugungi kun talabiga mutlaqo javob bermaydi. Shu sababli, viloyat televideniyesi uchun Urganch shahri markazida yangi bino qursak" [15] degan taklifni ilgari surdi. Respublika byudjetidan 26 milliard so'm mablag' ajratilib, zamonaviy loyihadagi yangi teleradikompaniya binosini qurish ishlari boshlandi. Yangi bino 2018-yil 31-dekabrda foydalanishga topshirildi.

2016-2017-yillarda Nukus shahri, Qo'ng'iro't, Taxtako'pir, Mo'ynoq, Shumanay, Amudaryo tumanlari va Qo'ng'iro't tumanining Qoraqalpog'iston posyolkasida yuqori quvvatli raqamli teleuzatkichlar o'rnatildi. Shuningdek, Nukus shahrining Qaratao', Chimboy tumanining Shaxaman, Mo'ynoq tumanining Qozoqdaryo va Qibla Ustyurt posyolkalarida kam quvvatli raqamli teleuzatkichlar ishga tushirildi. Bu va boshqa bir qator chora-tadbirlar tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini raqamli televideniye signallari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlaydigan zamonaviy texnik baza yaratildi. Yaponiyaning Xalqaro hamkorlik banki hamda boshqa tijorat banklari ishtirokida Vazirlar Mahkamasining qarori bilan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining yer usti raqamli televideniye tarmog'ini rivojlantirish" investisiya loyihasi amalga oshirildi.

Sun'iy yo'ldosh orqali teleradiosignallarni qabul qiluvchi "Qostruba", "Chukurqak" va "Bo'ston" aholi maskanlariga kam quvvatli raqamli teleuzatkich o'rnatildi. Sun'iy yo'ldosh (NSS-12 570) yordamida teleradiokanalarning uzatilishi sinovdan o'tkazilib, 12 ta telekanal va 4 ta radiokanal efirga uzatildi. Hozirgi vaqtda bu kam quvvatli teleuzatkichlar ishga tushirilishi bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi raqamli televideniye va radioeshittirishlar bilan to'liq qamrab olindi [16].

2020-yilda Buxoro teleradiokompaniyasida olib borilgan ta'mirlash ishlari sabab binodagi barcha xonalar zamonaviy ko'rinish kasb etdi. 2020-yil barcha jabhalarda bo'lgani kabi teleradiokompaniyada ham ancha sinovlarga boy bo'ldi. Xususan, e'lon qilingan pandemiya sabab qisqartirilgan tarkibda ish jarayonlari tashkillashtirildi. Virusning xavfli tomoni, uning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, aholini qiynayotgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalardagi muammolariga yechim topish maqsadida har kuni "Kun mavzusi" rukni ostida 1 soatlik 3 ta jonli muloqotlar efirga uzatildi. Qolaversa, karantin davrida viloyatda kechayotgan o'zgarishlardan aholini o'z vaqtida xabardor qilib borish maqsadida yangi formatdagi "Kun mavzusi", "Maxsus reportaj" dasturi orqali ijodiy jamoa o'z mahoratini namoyish qildi. "Assalom, Buxoro" tonggi dam olish dasturi onlayn tarzda tayyorlanib, aholiga mamnunlik va xush kayfiyat ulashdi. Efir setkasida belgilangan rejalarini ham o'z vaqtida bajarish uchun aksariyat

muharrirlar uy sharoitida onlayn faoliyat yuritib, efir sifati yanada boyishiga munosib hissa qo'shdilar [17].

2021-yilda Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari aholisi 18 ta ochiq to'plam dasturlaridan tashqari pullik tartibda tarqatiladigan 30 dan ortiq xorijiy telekanallarni ko'rish imkoniga ega bo'ldilar. "O'zbekiston Respublikasidagi Yer usti raqamli televideniye tarmog'ini rivojlantirish" loyihasi doirasida tog'orti hududlarida yashovchi aholini raqamli televideniye bilan ta'minlash maqsadida Andijon viloyatida 9 ta, Farg'ona viloyatida 8 ta, Namangan viloyatida 15 ta kam quvvatli stansiyalar tashkil etilib, kam quvvatli, raqamli uzatkich qurilmalari o'rnatildi. Aholiga ijtimoiy to'plamdagi raqamli televideniye signallari tarqatib berilishi yo'lga qo'yildi [18]. Natijada respublikamizning chekka hududlarida istiqomat qiluvchi aholi vakillari ham sifati yuqori tiniqlikdagi televideniye dasturlarini ko'rishga muvaffaq bo'lishdi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda hududiy televideniye sohasiga ham yangi texnika va texnologiyalarning bosqichma-bosqich kirib kelishi ijodiy imkoniyatlarning kengayishiga, mazmunan chuqur, shaklan mukammal, tomoshabinbop ko'rsatuv-eshittirishlarning, yangi tok-shou va viktorina hamda teleo'yinlarning joriy etilishiga zamin yaratdi. Mamlakatimizda barcha ommaviy axborot vositalari qatori televideniye sohasiga ham katta e'tibor qaratildi. Sohani isloh qilish, texnik rivojlantirish, yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlash borasida qator farmon va qarorlar qabul qilinib, katta ishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda xonadonlarda lampali televizorlar o'rniga elektron platali, mikrosxemali, pultli va suyuq kristalli "Samsung", "Daewoo", "Sony", "Panasonic", "LG" kabi zamonaviy televizorlar soni keskin ko'paydi. Aeroport, avto va temiryo'l vokzallari kutish xonalarida, samolyot va poyezdlarda ham teleko'rsatuvlarni qabul qilish vositalari o'rnatildi. Karantin davridagi kechayotgan o'zgarishlardan aholini o'z vaqtida xabardor qilib borish maqsadida Respublikamizning barcha hududlarida faoliyat olib borayotgan davlat, mahalliy va nodavlat televideniya tomonidan ham yuqoridagi ko'rsatilgan ishlar amalga oshirilgan.

Xulosa va takliflar. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning barcha hududlarida hududiy telekanallar faoliyatini amalga oshirish uchun keng sharoit yaratilgan bo'lishiga qaramay barcha hududlarda ham soha rivoji birdek kechmadi. O'tgan davr mobaynida ommaviy axborot vositalarida asosan nomutaxassis yoki o'rta ma'lumotli xodimlar faoliyat olib bordi. Soha rivoji uchun malakali kadrlar tayyorlashni yanada kengaytirish zarur. Hududiy telekanallarda mualliflik ko'rsatuvlarining ulushi katta emas. Shularni e'tiborga olgan holda tomoshabinlarning e'tiborini qozonishga mo'ljallangan dasturlar tayyorlashga e'tibor qaratish zarur. 2011-yilda "Yoshlar studiyalari" mamlakatimizning 11 ta hududida faoliyat yuritgan bo'lsa, bu studiyalar 2015-yilda o'z faoliyatini to'xtatgan. Kelajakda ushbu studiyalar faoliyatini qayta tiklash maqsadga muvofiq sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Mtrk.uz. 19.09.2023.
2. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). Buxoro: Durdon, 2022.– B.81.
3. Samtvr.uz. 29.12.2021-y.
4. Jumaboyev O. "Telefot"dan raqamli tasvirgacha // "Xabar" gazetasi, 2021, 30 iyul, 30 (1504). – B.6.
5. Mtrk.uz. 19.09.2021.
6. Mtrk.uz. 19.09.2021.
7. Navoiy viloyati televideniyesi ma'lumotnomasi.
8. Levitin L. O'zbekiston tarixiy burilish pallasida. –T:O'zbekiston, 2001 – B.350.
9. Mtrk.uz. 19.09.2021.
10. Yusupov I. O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi (Xorazm viloyati misolida). Buxoro: Durdon, 2022.– B.74.

11. Mtrk.uz. 19.09.2021.
12. Utermuratov A. "Ilk qadam". //“Xabar gazetasi, 2021, 29-oktabr, 43 (1517). – B.3.
13. Samtvr.uz. 29.12.2021.
14. Yusupov I.S. Istiqlol yillarida Xorazm televideniyesining yangi bosqichga ko'tarilishi tarixi //“Janubiy Orolbo‘yi arxeologiyasi, etnografiyasi: tarix va tarixshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. — Nukus, 2019. – B. 175.
15. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O‘zbekiston NMIU. 2017. – B. 256.
16. Utermuratov A. "Ilk qadam". //“Xabar” gazetasi, 2021, 29-oktabr, 43 (1517). – B.3.
17. Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining. 16.07.2021. №1/190-sonli ma'lumotnomasi.
18. Jumaboyev O. "Telefot"dan raqamli tasvirgacha //“Xabar” gazetasi, 2021, 30 iyul, 30 (1504). – B.7.